

**ZAHIRIDDIN MUHAMMAD BOBUR NOMIDAGI  
ANDIJON DAVLAT UNIVERSITETI  
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI  
DSc.03/31.12.2020.TAR.60.01-RAQAMLI ILMIY KENGASH**

---

**ANDIJON DAVLAT UNIVERSITETI**

**XOSHIMJONOV SHAROFIDDIN KOZIMJON O‘G‘LI**

**TURKISTON ASSRDA SOVET HOKIMIYATINING MULKDORLAR VA  
TADBIRKORLAR QATLAMIGA NISBATAN YURITGAN SIYOSATI  
(1918-1924-YILLAR)**

**07.00.01 – O‘zbekiston tarixi**

**TARIX FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD) DISSERTATSIYASI  
AVTOREFERATI**

**Andijon – 2025**

**Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)**

**Content of the abstract of the doctor of philosophy (PhD) dissertation**

**Xoshimjonov Sharofiddin Kozimjon o‘g‘li**

Turkiston ASSRda sovet hokimiyatining mulkdorlar va tadbirkorlar qatlamiga nisbatan yuritgan siyosati (1918-1924-yillar).....3

**Хошимжонов Шарофиддин Козимжон угли**

Политика советской власти в отношении слоя собственников и предпринимателей в Туркестанской АССР (1918–1924 гг.)..... 25

**Xoshimjonov Sharofiddin Kozimjon ugli**

The policy of the Soviet government in the Turkestan ASSR in relation to the class of owners and entrepreneurs (1918-1924) .....51

**E‘lon qilingan ishlar ro‘yxati**

Список опубликованных работ

List of published works.....55

**ZAHIRIDDIN MUHAMMAD BOBUR NOMIDAGI  
ANDIJON DAVLAT UNIVERSITETI  
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI  
DSc.03/31.12.2020.TAR.60.01-RAQAMLI ILMIY KENGASH**

---

**ANDIJON DAVLAT UNIVERSITETI**

**XOSHIMJONOV SHAROFIDDIN KOZIMJON O‘G‘LI**

**TURKISTON ASSRDA SOVET HOKIMIYATINING MULKDORLAR VA  
TADBIRKORLAR QATLAMIGA NISBATAN YURITGAN SIYOSATI  
(1918-1924-YILLAR)**

**07.00.01 – O‘zbekiston tarixi**

**TARIX FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD) DISSERTATSIYASI  
AVTOREFERATI**

**Andijon – 2025**

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2025.1.PhD/Tar403 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya Zahiriddin Muhammad Bobur nomidagi Andijon davlat universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash veb-sahifasida (<http://kengash.adu.uz/tarix/>) hamda «ZiyoNET» axborot-ta'lim portalida ([www.ziynet.uz](http://www.ziynet.uz)) joylashtirilgan.

**Ilmiy rahbar:**

**Abdullayev Muzrobjon G'ulomovich**  
tarix fanlari doktori, professor

**Rasmiy opponentlar:**

**Rasulov Baxtiyor Mahmudjonovich**  
tarix fanlari doktori, professor

**Yermetov Avazbek Abdullayevich**  
tarix fanlari doktori, professor

**Yetakchi tashkilot:**

**Namangan davlat universiteti**

Dissertatsiya himoyasi Z.M.Bobur nomidagi Andijon davlat universiteti huzuridagi ilmiy daraja beruvchi DSc.03/31.12.2020. Tar.60.01.-raqamli Ilmiy kengashning 2025-yil « 20 » 12 soat 14.00 dagi majlisida bo'lib o'tadi (Manzil: 170100, Andijon shahar. Universitet ko'chasi, 129-uy. Andijon davlat universiteti Tarix fakulteti binosi, 1-qavat, 108-auditoriya. Tel.: (0374) 225-73-21; faks: (0374) 225-73-21; e-mail: [agsu\\_info@edu.uz](mailto:agsu_info@edu.uz) Andijon davlat universiteti).

Dissertatsiya bilan Z.M.Bobur nomidagi Andijon davlat universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (21824A raqam bilan ro'yxatga olingan). (Manzil: 170100, Andijon shahar, Universitet ko'chasi, 129-uy. ARM binosi).Tel.: (0374) 225-84-33; Faks: (0374) 225-88-30.

Dissertatsiya avtoreferati 2025-yil « 05 » 12 kuni tarqatildi.

(2025-yil « 04 » 12 dagi 43 - raqamli reyestr bayonnomasi)



*R.T. Shamsutdinov*

**R.T. Shamsutdinov**  
Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash raisi, t.f.d., professor

*M.O. Alixojiev*  
**M.O. Alixojiev**  
Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash kotibi, t.f.n., dotsent

*O.K. Komilov*  
**O.K. Komilov**  
Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash qoshidagi Ilmiy seminar raisi, t.f.d., professor

## **KIRISH (Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)**

**Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati.** Dunyoda kechayotgan global o'zgarishlar sharoitida jahon iqtisodiyoti keskin transformatsiyaga uchramoqda. Xalqaro maydonda siyosiy taranglikning oshishi, turli davlatlarda avtokratiyaning rivojlanishi iqtisodiyotga, tadbirkorlik faoliyatiga salbiy ta'sirini ko'rsatmoqda. Ayrim davlatlarda hukumatlarning iqtisodiyotga mafkuraviy yondashuvi, siyosiy ta'sir o'tkazishi natijasida iqtisodiyot tarmoqlari, jumladan, xususi sektorning hukumatlarga ishonchsizligi ortib bormoqda va bu o'z navbatida ma'lum salbiy oqibatlarni yaratmoqda. Shu nuqtai nazardan, yaqin o'tmishdagi tadbirkorlik faoliyati, mulkdorlar bilan davlat o'rtasidagi o'zaro munosabatlar tarixini tahlil etish muhim ilmiy-amaliy ahamiyat kasb etmoqda.

Jahonda mulkdorlar qatlami, tadbirkorlik munosabatlarining shakllanish va rivojlanish bosqichlari, uning ijtimoiy-iqtisodiy masalalariga bog'liq mavzularda jumladan, sovet hokimiyati o'rnatilgan dastlabki yillarda davlat boshqaruv asoslari va mafkurasining jamiyat rivojlanishiga ko'rsatgan ta'siri, hukmron tuzumning xususi mulk va mulkdorlarga munosabati, ularga nisbatan olib borgan siyosati hamda oqibatlari bo'yicha ilmiy izlanishlar olib borilmoqda. Biroq, Turkistonda sovet boshqaruvi sharoitida mahalliy tadbirkorlik munosabatlari, mulkdorlar qatlamining huquqiy ahvoli, o'lkada xususi mulkchilikning tugatilishidagi muhim xususiyatlar o'z yechimini kutmoqda.

Mustaqillik yillarida respublikamizda tadbirkorlikni rivojlantirish, xususi mulk daxlsizligi va uning huquqiy asoslarini mustahkamlashga qaratilgan islohotlar amalga oshirilmoqda. So'nggi yillarda iqtisodiyotni isloh qilish, davlat tasarrufidagi iqtisodiyot tarmoqlarini xususiylashtirish, erkin bozorni shakllantirish, tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash uchun huquqiy baza yaratildi. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev "Tadbirkorlikni rivojlantirish – biz uchun strategik vazifa. Bizning tayanchimiz ham, suyanchimiz ham, eng katta kuchimiz ham shu sohada mujassam<sup>1</sup>" – deya bildirgan fikrlari davlatning iqtisodiy siyosatida tadbirkorlikni ustuvor yo'nalish sifatida belgilanayotganini, xususi sektorni milliy taraqqiyotning asosiy drayveri sifatida ko'rilayotganini tasdiqlaydi. Bugungi kunda iqtisodiyotimizda erkin bozor munosabatlarini keng joriy etishda duch kelinayotgan ko'plab muammolar ildizi ayni tadqiq qilinayotgan davrda o'rnatila boshlangan va xalqimizning ongiga singdirilgan tartiblar bilan bog'liq. Shu jihatdan olib qaraganda, ushbu tadqiqot ishi sovet hokimiyatining tadbirkorlar va mulkdor qatlama nisbatan yuritgan siyosatini tahlil qilish nafaqat tarixiy haqiqat ildizlarini, ochilmagan qirralarini xolisona baholashga, balki, olib borilayotgan iqtisodiy islohotlar va erkin bozorga o'tish yo'lidagi bo'shliqlarni to'ldirishga xizmat qiladi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2016-yil 5-oktyabrdagi PF-4848-son "Tadbirkorlik faoliyatining jadal rivojlanishini ta'minlashga, xususi mulkni har tomonlama himoya qilishga va ishbilarmonlik muhitini sifat jihatidan yaxshilashga

---

<sup>1</sup> Mirziyoyev Sh. Tadbirkorning yutug'i – butun xalqimizning yutug'i. Prezident Shavkat Mirziyoyevning 2024-yil 20-dekabr kuni mamlakatimizdagi faol tadbirkorlar bilan uchrashuvidagi nutqi. <https://gov.uz/oz/news/view/31058>

doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi, 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son “2022-2026-yillarga mo‘ljallangan yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi, 2023-yil 11-sentyabrdagi PF-158-son “O‘zbekiston – 2030” strategiyasi to‘g‘risida”gi, Farmonlarida hamda sohaga oid boshqa me‘yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni bajarishda mazkur tadqiqot muayyan darajada xizmat qiladi.

**Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi.** Dissertatsiya ishi respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining I. “Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy innovatsion g‘oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo‘llari” dasturi ustuvor yo‘nalishi doirasida bajarilgan.

**Muammoning o‘rganilganlik darajasi.** O‘zbek tarixshunosligida sovet hokimiyati yillarida xususiy mulkni tugatish, mulkdorlar va tadbirkorlar qatlamini siyosiy va iqtisodiy jihatdan cheklash, ularning ta‘qib qilinishi va tugatilishi sanoat korxonolari va ishlab chiqarish tarmoqlarini davlat tasarrufiga o‘tkazilishi, Yangi iqtisodiy siyosat davrida sovet hokimiyatining tadbirkorlikka nisbatan yuritgan siyosatini yorituvchi alohida tadqiqot ishlari amalga oshirilmagan. Tadqiqotlar asosan Ittifoq doirasida amalga oshirilgan.

Mazkur mavzuga bag‘ishlangan tadqiqotlarni masalaga davriy va konseptual yondashuv jihatidan uch guruhga ajratish mumkin: 1) sovet davri nashrlari; 2) mustaqillik yillarida olib borilgan tadqiqotlar; 3) xorijiy tadqiqotlar.

Sovet davrida yaratilgan adabiyotlarni ham uch guruhga ajratish mumkin. Xususan, birinchi guruhga sovet hokimiyatining ilk yillari, shuningdek, yangi iqtisodiy siyosat (YaIS) yillarida davlat boshqaruvi va iqtisodiy siyosat muammolari bilan partiya rahbarlari, markaziy bo‘lim rahbarlari, iqtisodchilar, – V.P. Akulenko, V.A. Bazarov, N.I. Buxarin, G.Safarov, N.D. Kondratev, G.M. Krjijanovskiy, L.N. Kritsman, Yu. Larin, V.V. Novojilov, Ye.A. Preobrajenskiy, A.I. Rikov, S.G. Strumilin, I.N. Yurovskiy, shuningdek, o‘sha davrning turli soha mutaxassislari - A.P. Demidov, V.Lavrentev, Ye.L.Zelkina va boshqalar shug‘ullanganlar<sup>2</sup>. Ularning tadqiqot ishlari sohasi va yo‘nalishida keng ko‘lamli masalalar yotadi, xususan, iqtisodiy rivojlanish tendensiyalari va davlatning ichki

---

<sup>2</sup>Крицман Л.Н. Героический период Великой русской революции // Вестник коммунистической академии. 1924. Кн. 9. – С.273; Демидов А. П. Экономические очерки хлопководства, хлопковой торговли и промышленности в Туркестане. – Москва: Новая деревня, 1926. – С.249; Базаров В. А. “Кривые развития” капиталистического и советского хозяйства // Плановое хозяйство. – Москва, 1926. – №6; Преображенский Е.А. Новая экономика. Опыт теоретического анализа советского хозяйства. – Москва, 1926. – С.335; Струмилин Г. Г. К перспективной пятилетке Госплана на 1926/27-1930/31 гг. // Плановое хозяйство. – Москва, 1927. –№ 3; Ларин Ю. Частный капитал в СССР. – Москва-Ленинград, 1927. – С. 312; Акуленко В. П. Направление, темп, равновесие // Плановое хозяйство. – Москва, 1929. –№4; Лаврентев В. Капитализм в Туркестане (буржуазная колонизация Средней Азии). Ленинград: Издательства Коммунистической академии. 1930. – С.158; Зелькина Е. Очерки по аграрному вопросу в Средней Азии. – Москва: Изд. Коммунистической Академии, 1930. – С.129; Кржижановский Г.М., Струмилин С.Г., Кондратьев Н.Д., Базаров В.А., и др. К построению перспективной пятилетки // Каким быть плану: дискуссии 20-х годов. – Ленинград, 1989. – С.224; Бухарин Н.И. Путь к социализму. – Новосибирск, 1990.– 494 с.; Рыков А. И. Избранные произведения. – Москва, 1990.– 496 с.; Юровский Л. Н. К проблеме плана и равновесия в советской хозяйственной системе // Финансовое оздоровление экономики: опыт нэпа. – Москва, 1990; Новожилов В. В. Недостаток товаров // НЭП и хозрасчет. – Москва, 1991; Кондратьев Н. Д. Особое мнение. Избранные произведения: В 2 кн. Кн. 1,2. – Москва, 1993.

iqtisodiyotdagi ishtirokining tarqalish chegaralari, davlatning ko‘p ukladli iqtisodiyotning boshqa subyektlari bilan munosabatlari, davlat boshqaruvi va xususiy boshqaruv o‘rtasidagi farqlar kabi masalalar markaziy o‘rin egallaydi. Ayniqsa, iqtisodiy siyosatni muvofiqlashtirish va davlat sektori faoliyatini, iqtisodiy tebranishlarni shakllantirishda davlatning roli, iqtisodiyotdagi o‘sish va tarkibiy o‘zgarishlarni rag‘batlantirish imkoniyatlari, bozor va direktiv-rejali boshqaruv usullari o‘rtasidagi bog‘liqlik, iqtisodiyotni tartibga solishning bozor mexanizmiga davlat ta‘sirining chegaralari va uni isloh qilish kabilar o‘sha davr iqtisodiy munosabatlarini yaqqol ko‘rsatib beradi.

Ikkinchi guruhga kiruvchi manbalar ya‘ni sovet hokimiyatining harbiy kommunizmi va yangi iqtisodiy siyosat davridagi iqtisodiy, tadbirkorlik munosabatlarini kommunistik mafkura asosida tushuntiruvchi rasmiy tarixshunoslik 1938-yilda bolsheviklarning Butunittifoq Kommunistik partiyasi Markaziy Qo‘mitasi tomonidan tasdiqlangan “VKP(b) tarixi” qisqa kursini nashr etish bilan boshlandi. Partiya darsligida shakllantirilgan mamlakatning siyosiy va ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi konsepsiyasi XX asrning 80-yillarining o‘rtalarigacha sovet tarixshunosligida ustunlik qildi. Yangi iqtisodiy siyosat davri kapitalizmdan sotsializmga o‘tish bosqichi, “harbiy kommunizm” va sotsialistik jamiyat asoslarini o‘rnatish o‘rtasidagi tarixiy bosqich sifatida ko‘rib chiqildi. Davlatning yangi iqtisodiy siyosatining pirovard maqsadi kapitalizm va mayda burjuaziyani yo‘q qilish, savdo, sanoat va qishloq xo‘jaligida xususiy sektorni yo‘q qilish edi<sup>3</sup>.

“VKP(b) tarixi” qisqa kursining konsepsiyasi Yangi iqtisodiy siyosat davrining keyingi tarixshunoslik muammolarini o‘rganish xususiyatini oldindan belgilab berdi. Nazariy talqinlar XX asr 80-yillarining o‘rtalariga qadar deyarli o‘zgarishsiz qoldi. Bu davrda yaratilgan tadqiqotlarda tadqiqotchilarning diqqat markazida ichki iqtisodiyotni tiklash va rekonstruksiya qilish, mamlakatni industrilashtirish, qishloq xo‘jaligini kollektivlashtirish, bozor mexanizmini isloh qilish, direktiv-rejali iqtisodiyotni shakllantirish, ko‘p ukladli iqtisodiyotni davlat-kooperativ iqtisodiyotga aylantirish, ijtimoiy sinflar va davlat o‘rtasidagi munosabat masalalari asosiy o‘rin egalladi<sup>4</sup>.

XX asrning 60-70-yillarda A.P. Finarov, V.A. Sidorov, N.A. Ivnitkiy, R.X.Aminova kabi sovet tarixchilari qishloq xo‘jaligini kollektivlashtirish, “yirik yer egalari, mulkdorlarni sinf sifatida tugatish” masalalarini tadqiq etish asnosida mulkdorlarning keyingi taqdirini ham yoritishga urinib ko‘rdilar va bu masalaga aloqador boblar kiritilgan o‘z tadqiqotlarini e‘lon qildilar<sup>5</sup>. Bu tadqiqotlarda shahar

<sup>3</sup> История Всесоюзной коммунистической партии (большевиков). Краткий курс. Одобрен ЦК ВКП(б) 1938 год. – Москва, 1954. – С. 240, 258, 267, 273, 290, 298.

<sup>4</sup> От капитализма к социализму. Основные проблемы истории переходного периода в СССР. 1917–1937 гг. Т. 1. Победа социалистической революции. Начало переходного периода. 1917–1927 гг. – Москва, 1981; От капитализма к социализму. Основные проблемы истории переходного периода в СССР. 1917–1937 гг. Т. 2. Развернутое строительство социализма в СССР. 1928–1937 гг. – Москва, 1981; Советское народное хозяйство в 1921–1925 гг. – Москва, 1960; Построение фундамента социалистической экономики в СССР (1926–1932 гг.). – Москва, 1960; История социалистической экономики СССР: В 7 т. Т. II, III. – Москва, 1976, 1977.

<sup>5</sup> Финаров А.П. К вопросу о ликвидации кулачества как класса и о судьбе бывших кулаков в СССР. – Москва, 1961; Аминова Р.Х. Аграрная политика советской власти в Узбекистане (1917-1920 гг.) – Ташкент,

tadbirkorlari, ya'ni burjua vakillari, "nepmanlar", savdogarlarning sovet hokimiyatining dastlabki yillarida siyosiy jihatdan ta'qibga olinishi, ularga tegishli mol-mulklarning musodara qilinishi, yangi iqtisodiy siyosat davrida xususiy savdo-sotiq va tadbirkorlik munosabatlariga birmuncha imkoniyatlar berilishi kabi masalalar yoritib o'tilgan. Bu tadqiqotlar kommunistik mafkura ta'siriga bo'ysundirilgan bo'lib, ularda ko'rilgan masala markscha-lenincha ta'limot asosida, xususiy mulk "sotsialistik" tuzumga yot xususiyat sifatida talqin qilingan.

XX asrning 80-yillari ikkinchi yarmida, ya'ni "qayta qurish" yillarida sovet hokimiyatining mulkdorlar va tadbirkorlar qatlamiga nisbatan yuritgan siyosati, umuman, harbiy kommunizm va yangi iqtisodiy siyosatning xususiyatlarini tanqidiy qayta ko'rib chiqishda burilish yuz berdi. Buning sababi sovet direktiv-rejali iqtisodiyotining o'tmishi va kelajagini qayta ko'rib chiqishni nazarda tutgan rivojlanib borayotgan ijtimoiy-iqtisodiy islohotlar edi. Tarixchilarning tadqiqotlarida ham bu davr tarixini yoritishda yangi muammolar paydo bo'ldi, ular ilgari hukmron bo'lgan konsepsiyaning determinizmiga munosabat edi. Xususan, G.A. Bordyugov, V.A. Kozlov, R.X. Aminova kabi tadqiqotchilar yangi iqtisodiy siyosat yillaridagi "favqulodda iqtisodiy rivojlanish"ning "Buxarin uslubi" imkoniyatlari haqida tahliliy ishlarini e'lon qildilar<sup>6</sup>. Mualliflarning fikricha, yangi iqtisodiy siyosatning pirovardida uni inkor etish, iqtisodiyotni boshqarishning iqtisodiy usullarini siqib chiqargan ma'muriy-buyruqbozlik tizimi egallay boshlagan. Ayni shu jarayonda xususiy tadbirkorlik munosabatlari ham ta'qib ostiga olina boshlagan.

N.S. Simonov o'z tadqiqotida 1920-yillarda sovet davlatidagi iqtisodiy tizimning evolyutsiyasini yangi iqtisodiy siyosatning "tugatilishi" sababi sifatida kuzatishga harakat qildi. Muallif Stalinning 1929-yildagi "buyuk burilish yili" g'oyasi yangi iqtisodiy siyosatga barham berib, xususiy mulkni davlatlashtirish siyosatining boshlang'ich pallasi bo'lganini ilgari suradi<sup>7</sup>.

Yuqoridagi asrlarda yirik yer egaligini tugatish jarayoni, mulklarni majburan davlat hisobiga tortib olish, yer egalari, tadbirkorlar mulkdorlarni ta'qib qilish, yangi iqtisodiy siyosat davridagi tadbirkorlikka munosabat, xususiy tadbirkorlikka nisbatan soliq-kredit va ma'muriy siyosat kabi masalalar nisbatan kam o'rganilgan. Eng muhimi, bu tadqiqotlarda muammo ittifoq miqyosida o'rganilganligi bois, O'zbekistondagi holat haqida deyarli to'xtab o'tilmagan.

Mustaqillik yillarida O'zbekistonning sovet tuzumi davri siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy hayot masalalarini haqqoniy ravishda yorituvchi bir qator ilmiy

---

1963. – С.343; Сидоров В. А. Мероприятия по трудовому перевоспитанию бывших кулаков. // Вопросы истории. – Москва, 1964. –№11. Перевоспитания бывших кулаков на Урале. / Материалы Межвузовской научной конференции по проблеме историко-социологического исследования села. – Калинин, 1968; Ивницкий Н.А. Классовая борьба в деревне и ликвидация кулачества как класса. 1929–1932 гг. – Москва: Наука, 1972. – 360 с.

<sup>6</sup> Бордюгов Г.А., Козлов В.А. Поворот 1929 года и альтернатива Бухарина // Вопросы истории КПСС. – Москва, 1988. – № 8. – С.15-33; Дмитриенко В.П. Четыре измерения НЭПа // Нэп: приобретения и потери. – Москва, 1994. –С. 34, 36; Аминова Р. Х. Коллективлаштириш - кашшоклаштириш демак // Шарк юлдузи. – Тошкент, 1992. – №12. – Б.183– 188; Uning o'zi. Возвращаясь к истории коллективизации в Узбекистане. – Ташкент: Фан, 1995. – 85 с.

<sup>7</sup> Симонов Н.С. В преддверии "великого перелома" // Вопросы истории КПСС. – Москва, 1990. – № 3. – С.71-72.

tadqiqotlar yaratildi<sup>8</sup>. Bu asarlarda sovet davlatining dastlabki davridagi iqtisodiy islohotlar, Turkistonda yirik yer egaligining tugatilishi, shuningdek, o'lkadagi sanoat korxonalarining davlat tasarrufiga olinishi, yirik mulkdorlar, savdogarlar, umuman, xususiy mulkchilikka qarshi kurash masalalari ham ma'lum darajada yoritib o'tilgan.

Shuningdek, ushbu masalaning ayrim jihatlarini o'rganishda xorijiy tadqiqotchilarning ishlarini ham alohida e'tiborga molik. Xususan, A.Park, E. Olvort, A. Xolid, R.Allen, Ye.Osokina, Sh.Fitzpatrik, V.Barnett kabi tadqiqotchilar Turkistonda sovet hokimiyatining o'rnatilishi va shakllanishi, sovet hokimiyatining iqtisodiy siyosati, jumladan, yangi iqtisodiy siyosat ziddiyatlari kabi masalalarni tahlil qiladilar va ma'lum ma'noda ushbu tadqiqot doirasidagi ayrim jihatlariga to'xtalib o'tadilar<sup>9</sup>.

Aytish mumkinki, hozirgi davrga qadar o'zbek tarixshunosligida sovet hokimiyatining mulkdorlar va tadbirkorlarga nisbatan yuritgan siyosati masalasi yaxlit bir ilmiy muammo sifatida maxsus o'rganilmagan va dissertatsion tadqiqot obyekti bo'lmagan. Bu ham ushbu muammoni respublikamiz arxivlarida va Rossiya Federatsiyasi arxivlarida saqlanayotgan maxfiyligi bekor qilingan hujjatlarni o'rganish, tahlil qilish asosida hal etishni taqozo etadi.

**Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi.** Dissertatsiya Zahiriddin Muhammad Bobur nomidagi Andijon davlat universiteti ilmiy-tadqiqot ishlari rejasiga muvofiq IT-34-4-08 "Rossiya imperiyasi va sovet mustamlakachiligi yillarida O'zbekistondagi ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy hayot (1867-1991-yillar)" mavzusidagi tadqiqot rejasi doirasida bajarilgan.

**Tadqiqotning maqsadi** xususiy mulkni tugatish jarayonida yirik yer egalari, mulkdorlar va tadbirkorlar qatlamiga nisbatan yuritilgan siyosatning o'zgarishi, bir biriga qarama-qarshi bo'lgan xususiy mulkni tugatish va yangi iqtisodiy siyosatni o'tkazilishini ilmiy jihatdan yoritish.

#### **Tadqiqotning vazifalari:**

Sovet hokimiyatining Turkistonda agrar sohadagi qonunchiligini tahlil qilish va uning mohiyati;

Turkistonda agrar o'zgarishlarni amalga oshirish va yirik yer egaligining tugatilishi jarayonini tadqiq qilish;

---

<sup>8</sup> Фойибназаров Ш. Ижтимоий ривожланиш сабоқлари. 20-йиллар тахлили. – Тошкент: Ўзбекистон, 1994. – 192 б; Ўзбекистоннинг янги тарихи. Иккинчи китоб. Ўзбекистон совет мустамлакачилиги даврида. – Тошкент: Шарқ, 2000. – 688 б; Мустабид тузумнинг Ўзбекистон миллий бойликларини талаш сиёсати: тарих шохидлиги ва сабоқлари. – Тошкент: Шарқ, 2000. – 432 б; Туркестан в начале XX века: к истории истоков национальной независимости. Коллектив авт.: Р.М. Абдуллаев, С.С. Агзамходжаев, И.А. Алимов и др. – Ташкент: Шарқ, 2000. – 672 с.; Шамсутдинов Р., Каримов Ш. Ватан тарихи. Иккинчи китоб. – Тошкент: Шарқ, 2010.; Ўзбекистон тарихи (1917-1991 йиллар). Биринчи китоб. 1917-1939 йиллар. Масъул муҳаррирлар: Р. Абдуллаев, М. Рахимов, Қ. Ражабов. – Тошкент: О'zbekiston, 2019. – 560 б.

<sup>9</sup> Park Alexander. Bolshevism in Turkestan (1917-1927). Columbia University Press, New York. 1957 y. –P. 428; Xolid A. O'zbekiston tavalludi: ilk SSSR davrida millat, imperiya va inqilob. – Toshkent: Akademnashr, 2022. – 406 б; Халид А. Туркестан 1917-1922 годах: борьба за власть на окраине России // Трагедия великой державы: национальный вопрос и распад Советского Союза / Отв. ред.: Г.Н.Севостьянов. – Москва: Мысль, 2005. –600 с; Edward Allworth, Central Asia: 130 Years of Russian Dominance A Historical Overview. Third Edition. Duke University Press, Durham and London, 1994. – P.652; Robert C. Allen. Farm to factory: A Reinterpretation of the Soviet Industrial Revolution. Princeton University Press, 2003. – P. 600.

Sanoat korxonalari ustidan davlat nazoratining joriy qilinishini yoritish;  
Ishlab chiqarish tarmoqlarining davlat tasarrufiga olinishini tahlil qilish;  
Xususiy ishlab chiqarish egaligining to'la tugatilishini tadqiq qilish;  
Yangi iqtisodiy siyosat yillarida tadbirkorlar yangi qatlamining shakllanishini yoritish.

O'rganilgan muammoni ilmiy-nazariy jihatdan tahlil etish asosida xulosa chiqarish va mavzu yuzasidan taklif-tavsiyalar berish.

**Tadqiqotning obyekti** Turkiston ASSRda 1918-1924-yillarda sovet hokimiyati tomonidan tadbirkorlar va mulkdorlar qatlamiga nisbatan yuritgan siyosati hisoblanadi.

**Tadqiqotning predmetini** Sovet hokimiyatining Turkiston ASSRdagi mustamlakachi hukumati tomonidan Turkistonda agrar qonunchilikning tubdan o'zgartirilishi, yirik yer egaligini tugatilishi, sanoat korxonalari ustidan davlat nazoratini o'rnatilishi, natijada xususiy sanoat korxonalarini davlat tasarrufiga olinishi va xususiy ishlab chiqarishning to'la tugatilishi, mayda hunarmandchilik ishlab chiqarish munosabatlari, iqtisodiy vaziyatning izdan chiqishi sabab joriy etilgan yangi iqtisodiy siyosat davrida shakllangan yangi tadbirkorlar qatlamining shakllanishi jarayonlari tashkil etadi.

**Tadqiqotning usullari.** Dissertatsiyada tarixiylik tamoyiliga tayangan holda qiyosiy, analiz va sintez, muammoli, retrospektiv tahlil usullaridan foydalanilgan.

**Tadqiqotning ilmiy yangiligi** quyidagilardan iborat:

Turkiston ASSRda dastlab mulkdorlar va tadbirkorlarning mulklari natsionalizatsiya qilinishi, yangi iqtisodiy siyosat davrida esa bir vaqtning o'zida xususiy tadbirkorlik faoliyatiga ruxsat etish va bunga qarama-qarshi ravishda ularning rivojlanib ketishini oldini olish tadbirlari kabi bir-biriga qarama-qarshi, ziddiyatli jihatlar ochib berilgan;

1921-1922-yillarda amalga oshirilgan yer-suv islohoti jarayoni Rossiya imperiyasi davrida Turkistonga ko'chirib keltirilgan kelgindi rus dehqonlari tasarrufidagi yerlarnigina emas, balki mahalliy aholi qo'lidagi yer-mulklar ham musodara qilinishga qaratilgani arxiv hujjatlari asosida dalillangan;

Turkiston ASSRda sovet hukumatining mulkdor qatlamga qarshi yuritgan siyosati, aholining yer va mulklarini tortib olinishi Turkistonda XX asrning birinchi choragida kuzatilgan milliy ozodlik harakati deb baholanadigan qurolli qarshilik harakatining kelib chiqishi omillaridan biri ekanligi va bu harakatning sovet rejimiga qarshi qurolli harakat ekanligi asoslangan;

Turkiston Respublikasida bolsheviklar hukumati tomonidan sanoat va xizmat ko'rsatish tarmoqlarini natsionalizatsiya qilish jarayonlaridagi to'rtta asosiy bosqichda, sanoat korxonalarida ishchilar nazorati o'rnatish, dastlab, yirik sanoat korxonalari, keyingi bosqichlarda esa, o'rta sanoat korxonalari hamda mayda xizmat ko'rsatish shoxobchalari, hunarmandchilik ustaxonalari natsionalizatsiya qilingani asoslab berilgan.

**Tadqiqot natijalarining ishonchliligi** dissertatsiya ishida tarix fanida tan olingan nazariy yondashuv va usullarning qo‘llanilganligi, arxiv hujjatlari<sup>10</sup>, davriy matbuot nashrlari<sup>11</sup> va to‘plamlar, statistik ma’lumotnomalar va hujjatlardan<sup>12</sup> foydalanilganligi, xulosa, taklif va tavsiyalarning amaliyotga joriy etilgani, olingan natijalarning vakolatli muassasalar tomonidan tasdiqlangani bilan izohlanadi.

**Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati.** Tadqiqot natijalaridan Turkiston ASSRning 1918-1924-yillardagi tarixini o‘rganish, O‘zbekistonda ijtimoiy-iqtisodiy tarix muammosining ilmiy-nazariy xulosalarni boyitish va takomillashtirish, tarixshunoslik tadqiqotlarini rivojlantirishda foydalanish mumkin.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati O‘zbekiston tarixiga doir o‘quv qo‘llanmalar, darslik va fundamental tadqiqotlar, bibliografik ko‘rsatkichlar yaratish hamda O‘zbekiston tarixi fanining o‘quv dasturlarini qayta shakllantirishga xizmat qilganligi bilan izohlanadi.

**Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi.** Turkiston ASSRda sovet hokimiyatining mulkdorlar va tadbirkorlar qatlamiga nisbatan yuritgan siyosatini (1918-1924-yillar) o‘rganish davomida olingan **natija, xulosa va amaliy tavsiyalardan:**

Turkiston ASSRda dastlab mulkdorlar va tadbirkorlarning mulklari natsionalizatsiya qilinishi, yangi iqtisodiy siyosat davrida esa bir vaqtning o‘zida xususiy tadbirkorlik faoliyatiga ruxsat etish va bunga qarama-qarshi ravishda ularning rivojlanib ketishini oldini olish tadbirlari kabi bir-biriga qarama-qarshi, ziddiyatli jihatlarga oid xulosalardan “O‘zbekiston tarixi” telekanalida 2024-yil 15-may kuni efirga uzatilgan “Etno” ko‘rsatuvining ssenariysini shakllantirishda foydalanilgan (O‘zbekiston milliy teleradiokompaniyasi “O‘zbekiston teleradiokanali” davlat muassasasining 2024-yil 13-noyabrdagi 01-44-425-son ma’lumotnomasi). Buning natijasida teletomoshabinlar Turkiston ASSR davrida olib borilgan iqtisodiy siyosatning murakkab va ziddiyatli jihatlari bilan tanishdi, bu esa mintaqa tarixini chuqurroq anglash imkonini berdi;

1921-1922-yillarda amalga oshirilgan yer-suv islohoti jarayoni Rossiya imperiyasi davrida Turkistonga ko‘chirib keltirilgan kelgindi rus dehqonlari tasarrufidagi yerlarnigina emas, balki mahalliy aholi qo‘lidagi yer-mulklarni ham musodara qilishga qaratilgani arxiv hujjatlaridan O‘zbekiston Milliy teleradiokompaniyasi “O‘zbekiston tarixi” telekanalining “Etno” hamda “На перекрестках истины” ko‘rsatuvlarining ssenariylarini shakllantirishda foydalanildi (O‘zbekiston milliy teleradiokompaniyasi “O‘zbekiston teleradiokanali” davlat muassasasining 2024-yil 13-noyabrdagi 01-44-425-son ma’lumotnomasi). Mazkur ko‘rsatuv natijasida teletomoshabinlar sovet hokimiyatining “xalq manfaatlari” shiori ostida olib borilgan siyosiy islohot va

---

<sup>10</sup> O‘zbekiston Milliy arxivi (bundan keyin – O‘z MA). R-17-jamg‘arma, R-25-jamg‘arma, R-29-jamg‘arma; R-27-jamg‘arma, Andijon viloyat davlat arxivi (bundan keyin – Andijon VDA) 19-jamg‘arma.

<sup>11</sup> Народное хозяйства Туркестана, Экономическая жизнь, Бюллетень Исполкома kabi jurnallar va Ulug‘ Turkiston gazetasi.

<sup>12</sup>Бюллетень Центрального статистического управления, Бюллетень Центрального совета народного хозяйства, Бюллетень Центрального Исполнительного комитета Туркестанский АССР.

choralari zahirida qanday real ijtimoiy guruhlarning manfaatlari ko'zlanganini anglashga erishdilar hamda tarixiy jarayonlarga tanqidiy-ilmiy yondashuv asoslari shakllandi.

Turkiston ASSRda sovet hukumatining mulkdor qatlamga qarshi yuritgan siyosati, aholining yer va mulklarini tortib olinishi Turkistonda XX asrning birinchi choragida kuzatilgan milliy ozodlik harakati deb baholanadigan qurolli qarshilik harakatining kelib chiqishi omillaridan biri ekanligi va bu harakatning sovet rejimiga qarshi qurolli harakat ekanligiga oid materiallardan Andijon viloyati tarixi va madaniyati muzeyi "Tarix bo'limi" ekspozitsion rejalarini tuzishda (O'zbekiston Respublikasi Madaniy meros agentligining 2024-yil 8-noyabrdagi 02-05/4244-sonli ma'lumotnomasi) foydalanilgan. Arxiv hujjatlari va tarixiy manbalar asosida tayyorlangan ekspozitsiya muzey faoliyatining ilmiylikni kuchaytirdi va tarixiy obyektivlikni ta'minlashga xizmat qildi.

Turkiston Respublikasida bolsheviklar hukumati tomonidan sanoat va xizmat ko'rsatish tarmoqlarini natsionalizatsiya qilish jarayonlaridagi to'rtta asosiy bosqichda, sanoat korxonalarida ishchilar nazorati o'rnatish, dastlab, yirik sanoat korxonalarini, keyingi bosqichlarda esa, o'rta sanoat korxonalarini hamda mayda xizmat ko'rsatish shoxobchalari, hunarmandchilik ustaxonalarini natsionalizatsiya qilinganiga oid materiallardan Andijon viloyati tarixi va madaniyati muzeyi "Tarix bo'limi" ekspozitsion rejalarini tuzishda (O'zbekiston Respublikasi Madaniy meros agentligining 2024-yil 8-noyabrdagi 02-05/4244-sonli ma'lumotnomasi) foydalanilgan. Bu materiallar orqali Andijon va umuman Turkiston mintaqasining XX asr boshlaridagi sanoat va xizmat ko'rsatish tarmoqlari qanday bosqichlardan o'tganini aniqlashtirish imkoni tug'ildi. Bu esa hududiy tarixni chuqurroq yoritishga xizmat qildi.

**Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi.** Mazkur dissertatsiya ishi natijalari 3 ta xalqaro va 2 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida muhokamadan o'tkazilgan.

**Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi.** Dissertatsiya mavzusi yuzasidan jami 11 ta ish e'lon qilingan. Jumladan, tadqiqotning asosiy mazmuni, xulosa va natijalari O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasi tomonidan doktorlik dissertatsiyalarining asosiy natijalarini chop etish uchun tavsiya qilingan davriy nashrlarda 6 ta, xususan, respublika jurnallaridagi 4 ta va xalqaro nashrlardagi 2 ta ilmiy maqolalar e'lon qilingan.

**Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi.** Dissertatsiya ishi kirish, uchta bob, xulosa, foydalanilgan manbalar va adabiyotlar ro'yxati hamda ilovalardan iborat. Dissertatsiyaning tadqiqot qismi 158 betni tashkil etadi.

## DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

**Kirish** qismida dissertatsiya mavzusining dolzarbligi asoslanib, tadqiqotning maqsadi va vazifalari, obyekti va predmeti aniqlangan, tadqiqot ishining respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi ko'rsatib berilgan, ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon qilingan, olingan natijalarning

ilmiy hamda amaliy ahamiyati ochib berilgan. Shuningdek, tadqiqot natijalarining amaliyotga joriy qilinishi, ishning aprobatsiyasi, nashr etilgan ishlar va dissertatsiya tuzilishi bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan.

Tadqiqotning birinchi bobi **“Turkiston Sovet Respublikasida yirik yer egaligining tugatilishi uchun harakat”** deb nomlangan. Ushbu bobning birinchi paragrafidagi **“Agrar masalaga markscha-lenincha yondashuv hamda Sovet hukumatining Turkistonda agrar sohadagi qonunchiligi”** masalasi yoritilgan.

1917-yilning oktyabrida to'ntarish oqibatida qurilayotgan yangi Sovet davlati amaldagi ijtimoiy tuzumni butkul o'zgartirishni maqsad qilgan bo'lib, markscha-lenincha ta'limotga asoslangandi. Markscha-lenincha ta'limotda markaziy o'rinlardan birini ekspluatatorlar va ekspluatatsiya qilinadiganlar o'rtasida bo'lingan jamiyatda sinfiy qarama-qarshilikning muqarrarligi haqidagi g'oya egallaydi.

Marks nazariyasi jamiyatda ijtimoiy qarama-qarshilikni kuchaytirish, zo'ravonlik vositasida bunga erishishni nazarda tutardi. Sotsialistik mayda dehqon xo'jaliklarini sotsialistik qayta qurish haqidagi dastlabki fikrlar Karl Marks tomonidan asoslab berilgandi. U mayda erkin dehqon xo'jaliklarini va yirik yer egaligini ijtimoiy-iqtisodiy jihatdan tahlil qilib, ularning salbiy jihatlarini tanqid qilarkan, dehqon xo'jaliklari ham kapitalizmning umumiy iqtisodiy qonuniyatlari asosida rivojlanayotgani haqidagi xulosaga keladi. Marks asarida yirik va kichik mulk shakllarini tanqidi pirovardida uning nazdida qishloq xo'jaligi rivojiga to'sqinlik qiluvchi asosiy faktor, xususiy mulkchilik tanqidiga olib borishini aytadi. Ushbu nazariya keyinchalik Lenin tomonidan rivojlantirildi. U kelajakda jamiyatda tovar-pul munosabatlariga va bozorga joy bo'lmaydi, demak, xususiy mulk, jumladan, xususiy yer ham bo'lmaydi, deb hisoblardi<sup>13</sup>. Lekin birinchi navbatda yerni yirik mulkdorlardan tortib olish kerak edi. Dastlab, sotsial-demokratlar qishloqdagi dehqonlarga inqilobiy kuch emas, balki, potensial dushman, asosan, qishloq kommunasi ko'rinishida butun yerni olish va davlatni egallashdan manfaatdor bo'lgan mayda burjua sinfi sifatida qaradilar. Ishchilar sinfining son jihatdan zaifligi bolsheviklarni inqilob tashabbusida boshqa sherik izlashga majbur qildi<sup>14</sup>. Ularga son jihatdan zarur va chor rejimiga yashirin dushmanligi nuqtayi nazaridan inqilobiy harakat uchun eng mos qatlam dehqonlarni tanlashga olib keldi<sup>15</sup>. Umuman olganda, Lenin nazariyasiga ko'ra, “...Birinchidan, biz oxirigacha, mulklari musodara qilinmaguncha dehqonni yer egasiga qarshi qo'llab-quvvatlaymiz, keyin esa (va undan keyin ham emas, balki bir vaqtning o'zida) umuman dehqonlarga qarshi proletariatni qo'llab-quvvatlaymiz<sup>16</sup>”.

Bolsheviklar fraksiyasi ishlab chiqqan agrar dasturni amaliyotga joriy etish bo'yicha huquqiy baza ishlab chiqish boshlandi. Bolsheviklarning yer masalasidagi dastlabki tamoyillari to'ntarish kuni e'lon qilingan “Yer to'g'risida”gi dekretga bayon etildi. Eng avvalo, yerga egalik qilishda xususiy mulkchilik batamom bekor qilindi.

<sup>13</sup> Рассказов Л.П., Верхогляд Д.А. Ленинская идея национализации земли и ее реализация в процессе формирования законодательной базы, определявшей статус земельной собственности после октябрьской революции 1917 г. // Научный журнал КубГАУ. – №94 (10), 2013. – С.6.

<sup>14</sup> Park Alexander. Bolshevism in Turkestan (1917-1927). Columbia University Press, New York. 1957 y. –P. 250.

<sup>15</sup> Ленин В. И. Полное собрание сочинений. Том 11. – Москва: Госиздат политической литературы, 1963. – С.90.

<sup>16</sup> O'sha manba. – С.222.

Dekretning asosiy tamoyili barcha yerlarni, yer osti boyliklarini, oʻrmon va suvlarni hech qanday toʻlovlarsiz natsionalizatsiya qilishni koʻzda tutadi<sup>17</sup>.

Butunrossiya MIQ va XKS tomonidan 1918-yil 27-yanvarda “Yer sotsializatsiyasi toʻgʻrisidagi asosiy qonun” qabul qilinib, yer bozor munosabatlaridan chetga chiqarildi. Ushbu qonun 13 ta boʻlim, 53 moddadan iborat edi<sup>18</sup>. Qonunning 1-moddasida mamlakat hududidagi barcha mulkchilik abadiy bekor qilingani aytiladi, biroq, yerning egasi sifatida davlat umuman eslanmaydi. Bu huquqiy noaniqlikni keltirib chiqardi - agar «barcha mulk» bekor qilinsa, u holda davlat mulki ham bekor qilinadi, ammo bu prinsipial jihatdan mumkin emas, chunki kimdir yerni tasarruf etishi kerak edi.

Birinchi bobning ikkinchi paragrafi **“Turkistonda agrar oʻzgarishlarning boshlanishi va uning oqibatlari”** deb nomlangan.

Partiya va Sovet hukumati yigʻilishlarida Turkistondagi barcha yerlar Rossiyadagi kabi yirik zamindorlarga tegishli deb hisoblab, ulardan yerlarni tortib olish sovetlarning birinchi vazifasi ekani qatʼiy belgilandi. Biroq, inqilobdan oldingi tabaqalanish eng yuqori boʻlgan Fargʻona viloyatida ham 10 desyatinadan koʻp yerga egalik qiladigan xoʻjaliklar umumiy xoʻjaliklarning 3,5 foizini tashkil etib, 31,3 foiz yer ularning qoʻlida boʻlsa, Samarqandda 10 desyatinadan koʻp yeri bor xoʻjaliklar umumiy xoʻjaliklarning 17,4 foizini tashkil etgan boʻlib, umumiy yerlarning 57,2 foiziga egalik qilgan<sup>19</sup>. Umuman olganda, bolsheviklarning bir hovuch boylar qoʻlida barcha yer mulklari toʻplangan degan xulosasi haqiqatga unchalik ham mos kelmaydi.

Sovetlarning agrar sohadagi faoliyati yer-mulklarni natsionalizatsiya qilishning boshlanishi bilan bogʻliq boʻlib, birinchi navbatda, uni amalga oshiruvchi yer qoʻmitalari tuzildi, keyinroq vakolat viloyat, uyezd va volost sovetlarining yer boʻlimlariga oʻtkazildi. Boʻlimlar tomonidan ishni rejalashtirmaslik, tizimsizlik, aniq qoidalarning belgilab olinmagani oqibatida yer-mulklarni roʻyxatga olish va musodara qilishda koʻplab kamchiliklarga yoʻl qoʻyildi. Xususan, Andijon va Namangan uyezdleri xalq xoʻjaligi boʻlimi boshliqligiga yangi tayinlangan Teder va Chelevitskiylar 1919-yil 28-avgustdagi Xalq xoʻjaligi kengashi I syezdidagi hisobotlarida ushbu boʻlimlar tomonidan natsionalizatsiya qilingan mulklar va mahsulotlarning roʻyxatga olinmagani, ish juda tartibsiz tashkil etilgani haqida axborot berishadi<sup>20</sup>. Mulkdorlar maqsadli tarzda yer boʻlimlariga kirib, oʻz xoʻjaliklarini roʻyxatga olishni ortga surilishiga intilgan. 1919-yil avgustida Fargʻona viloyati Andijon uyezdida natsionalizatsiya boʻyicha instruktorlar orasida oʻtkazilgan tozalovda 32 nafar instruktordan 11 nafari mulkdor qatlam vakili, yot element sifatida chetlatilgan<sup>21</sup>.

Mahalliy partiya tashkilotlari rahbarligida dehqon deputatlari Sovetlari qishloqlarda boshlangan agrar oʻzgartirishlarni davom ettirib, “mehnatsiz kun kechiruvchi xoʻjaliklar” deb ataluvchi oʻziga toʻq xoʻjaliklar roʻyxatga olinib, katta

<sup>17</sup> Декреты советской власти. Том 1. – Москва: Госиздат политической литературы, 1957. – С.19.

<sup>18</sup> Oʻz MA, R-29-fond, 1-roʻyxat, 126a-yigʻmajild, 10-11-varaq orqasi.

<sup>19</sup> Зелькина Е. Очерки по аграрному вопросу в Средней Азии. – Москва: Изд. Коммунистической Академии, 1930. – С.50.

<sup>20</sup> Oʻz MA, R-17-fond, 1-roʻyxat, 33-yigʻmajild, 84-varaq.

<sup>21</sup> Oʻz MA, R-29-fond, 3-roʻyxat, 1516-yigʻmajild, 86-varaq.

yer-mulklarni musodara qilish boshlandi. Chunonchi, 1918-yilda faqat Toshkent uyezdining 11 volostida 12 ming desyatina yeri bo'lgan 174 ta mehnatsiz xo'jalik hisobga olindi va ko'p qismining yeri musodara qilindi. Kattaqo'rg'on uyezdida 3 ming desyatina yaqin yer hisobga olinib, 1560 desyatinasidan ko'prog'i tortib olinib, yersiz dehqonlarga bo'lib berildi. Farg'ona viloyatidagi yer-suv komitetlari 1918-yil apreldan 1919-yil aprelgacha Skobelev uyezdida 22 nafar mulkdorlarning 12315 desyatina yerini, Qo'qon uyezdida 2235 desyatina yerni, jonli va jonsiz qishloq xo'jaligi inventarlari, asbob-anjomlari bilan birga natsionalizatsiya qilingan<sup>22</sup>.

1918-yilning 21-yanvarida yer ishlari xalq komissarining yer islohoti o'tkazish bo'yicha buyrug'i chiqarildi<sup>23</sup>. 1918-yil 25-fevral kuni TASSR Xalq Komissarlari Sovetining qaroriga ko'ra "Vladimir Alekseyev" savdo-sanoat shirkatining bog'lari, xo'jalik binolari<sup>24</sup>, 5-martida Toshkent uyezdidagi katta yerlarga egalik qiluvchi aka-uka Ivanovlarning "Qoplonbek" (121 desyatina bog', 9 desyatina uzumzor, 30 desyatina bedapoya, jami 154 desyatina yer) va "Kensay" mulklari ham yuqoridagi tartibda tortib olindi<sup>25</sup>. 18-martda yana bir katta xo'jalik – Turkiston qishloq xo'jaligi va sanoat shirkatiga qarashli 40 ming tup mevali daraxtlarga ega 250 desyatina bog', 45 desyatina bedazor, 65 desyatina sanoat madaniy ekinlariga ega "Eski Toshkent" mulki ham natsionalizatsiyaga tortildi<sup>26</sup>.

Yer-suv qo'mitalari tomonidan shakllantirilgan ro'yxat asosida 1918-yil 26-mart kuni Xalq Komissarlar Sovetining tegishli qarori bilan Toshkent va uning atrofidagi 32 nafar Turkistonning yirik kapitalist, savdogar va mulkdorlarining sanoat ahamiyatiga ega 1337 desyatina yeri, qishloq xo'jaligi mulklari barcha xo'jalik binolari, jonli va jonsiz mehnat qurollari, barcha qishloq xo'jaligi mahsulotlari bilan birgalikda natsionalizatsiya qilindi<sup>27</sup>. Birgina shu qaror bilan aksariyati namunaviy bog' va uzumzorlardan iborat 1337 desyatina yerlar sovet organlari tasarrufiga o'tkazildi<sup>28</sup>.

Bundan tashqari, mahalliy mulkdorlar yerlari ham tortib olinib boshlandi. 1918-yilning aprelda Bulatov volostida Azimqul ismli mulkdordan 2 ming desyatina va Rixsiboydan 500 desyatina, Zangiota volostidagi To'raxo'ja Dadajonovning esa 200 desyatina, Rustamboy Xolmirzayevning 120 desyatina, Navro'zboyevning 250 desyatina yerlari tortib olindi<sup>29</sup>. 1918-yil apreldan 1919-yil apreliga qadar Skobelev uyezdida 22 ta xo'jalik natsionalizatsiya qilingan, 12315 desyatina yer sotsializatsiya\* qilingan. Qo'qon va Namangan (1990 desyatina yer sotsializatsiya qilinishi lozim

<sup>22</sup> O'z MA, 29-fond, 3-ro'yxat, 1516-yig'majild, 86-87-varaqlar.

<sup>23</sup> Туркестан в начале XX века к истории истоков национальной независимости. / Коллект. авт.: Р.М.Абдуллаев, С.С.Агзамходжаев, И.А.Алимов и др. – Ташкент: Sharq, 2000. – С. 245.

<sup>24</sup> O'z MA, R-25-fond, 1-ro'yxat, 35-d yig'majild. 80-varaq.

<sup>25</sup> O'z MA, R-25-fond, 1-ro'yxat, 35-d yig'majild. 114-varaq.

<sup>26</sup> O'z MA, R-29-fond, 3-ro'yxat, 1086-yig'majild. 4-7-varaqlar.

<sup>27</sup> O'z MA, R-29-fond, 3-ro'yxat, 935-yig'majild. 132-varaq.

<sup>28</sup> O'z MA, R-29-fond, 3-ro'yxat, 935-yig'majild. 133-varaq.

<sup>29</sup> Социалистическое переустройство сельского хозяйства в Узбекистане (1917–1926 гг.) / Под ред. О. Джамалова, Р.Аминова, Т.Джураева. – Ташкент: Изд. АН УзССР, 1962. –С. 57.

\*Yer sotsializatsiyasi – yerga egalik va undan foydalanishni jamiyat manfaatlariga bo'ysundirishga qaratilgan tamoyil bo'lib, yerning xususiy mulk sifatida emas, balki umumiy ijtimoiy boylik sifatida boshqarilishini nazarda tutadi. Bu g'oya sotsialistik iqtisodiy tizimlarda yerning davlat yoki jamoa tasarrufiga o'tkazilishi va uning bozor munosabatlaridan chiqarilishi orqali ifoda etiladi.

bo‘lgan) uyezdlarida qurolli qarshilik harakati sabab yer-suv islohoti o‘tkazish deyarli amalga oshmagan<sup>30</sup>.

Xulosa qilib aytish mumkinki, sovet hokimiyati Turkistonda asrlar davomida shakllangan mulkchilik shakllarini, yer egaligi munosabatlarini barbod qildi. Mulkdorlar qo‘lidagi ishlab chiqarish korxonalari, yer-suv, qishloq xo‘jalik jihozlari, oziq-ovqat zaxiralari majburan tortib olindi, uning egalari huquqsiz toifaga aylantirildi.

Tadqiqotning ikkinchi bobi **“Yirik xususiy sanoat korxonalarining tugatilishi”** deb nomlangan. Mazkur bobning birinchi paragrafi **“Oktyabr to‘ntarishigacha sanoatning ahvoli va korxonalar ustidan davlat nazoratining o‘rnatilishi”** ga bag‘ishlandi. XIX asr oxiri XX asr boshlarida Rossiyada sanoatning to‘qimachilik sohasi shiddat bilan rivojlanishi xomashyoga talabni oshirdi. Bu sharoitda Rossiya sanoatchilari O‘rta Osiyoga kapital kiritib, sohani rivojlantirishga intildi. Shu bois, Turkistonda avvalo paxta maydonlari kengaydi va sanoat tarmoqlari ham ushbu soha atrofida rivojlandi. 1913-yilgi ma‘lumotlarga ko‘ra<sup>31</sup>, Turkiston sanoatining 74 foizi paxta tozalash, 5,6 foizi yog‘, 1,8 foizi un, 1,5 foizdan ipakchilik va teri, 1 foiz toshko‘mir, 1,9 foizi neft, 14,3 foizi boshqa sanoat tarmoqlariga to‘g‘ri kelgan.

Paxta tozalash sanoati o‘lka sanoatining asosiy qismini tashkil etgan. Yoqilg‘i, logistika ham paxta tozalash sanoati uchun xizmat qilgan. Sanoat eng ko‘p rivojlangan Farg‘ona viloyatida 1890-yilda 30 ta ana shunday korxonalar ishlab turgan bo‘lsa, 1913-yilda ularning soni 167 taga yetgan<sup>32</sup>. Ma‘lumotlarga ko‘ra, paxta tozalash sanoatining 73.1 foizini kichik va o‘rta korxonalar tashkil etgan. Turkistonda paxta tozalash korxonalari egalarining milliy tarkibida mahalliy tadbirkorlarning ulushi kam bo‘lmagan. 1917-yilga kelib, O‘rta Osiyoda 1428 ta (Buxoro amirligida 92 ta, Xiva xonligida 13 ta) sanoat korxonasi mavjud bo‘lgan. O‘lkada 50 turdagi sanoat korxonalari mavjud bo‘lib, ularning asosiy qismi, 414 tasi paxta tozalash zavodlari edi. Sovet hokimiyati o‘rnatilgach, Turkistonda ham repressiv choralarni o‘z ichiga olgan “harbiy kommunizm” siyosati boshlandi. Turkistonda ishchilar aholining 0.35 foizinigina tashkil qilib, ularning 77.2 foizini mahalliy millat vakillari tashkil etishi va asosan kam malakali hamda qora ishchilardan iboratligi korxonalarni ishchilar nazoratiga o‘tkazishda qiyinchilik tug‘dirdi.

1917-yil 14-noyabrda RSFSR XKS Lenin ishlab chiqqan “Ishchilar nazorati to‘g‘risidagi Nizom” asosida “Ishchilar nazorati to‘g‘risida”gi dekretni qabul qildi. Unga ko‘ra, ishchilar nazorati komissiya va kengashlari sovet organlariga aylandi. Barcha turdagi korxonalar, zavod va fabrikalar ishchilar nazoratiga o‘tkazilishi belgilandi. 1918-yil 7-fevralda Turkiston o‘lka sovetlarining IV syezdi rezolyutsiyasida “O‘lkada ishlab chiqarish ustidan zudlik bilan ishchi nazoratini o‘rnatish va kasaba uyushmalari tarmog‘ini yaratish” alohida qayd etildi<sup>33</sup>.

<sup>30</sup> O‘z MA, R-17-fond, 1-ro‘uxat, 32-yig‘majild. 92-varaq.

<sup>31</sup> Лаврентьев В. Капитализм в Туркестане (буржуазная колонизация Средней Азии). – Ленинград: Издательства Коммунистической академии, 1930. –С.50.

<sup>32</sup> Демидов А. П. Экономические очерки хлопководства, хлопковой торговли и промышленности в Туркестане. – Москва: Новая деревня, 1926. – С. 135.

<sup>33</sup> Рабочий контроль и национализация промышленности Туркестане (1917–1920 гг.). Сборник документов. / Под ред. Воскобойникова Э. А. –Ташкент: Государственное издательство УзССР, 1955. –С.75.

Arxiv hujjatlarida “Singer Company” firmasida ishchi nazoratini o‘rnatish haqidagi ma’lumotlar jarayonni to‘liq tushunish uchun yordam beradi. 1918- yilning mart-may oylarida AQSHning Moskvadagi konsulxonasi, Amerikaning Toshkentdagi konsuli Tredvellning qattiq qarshiliklariga qaramay “Zinger kompaniyasi” Turkistondagi barcha korxonalari ustidan ishchi nazorati o‘rnatilishi belgilanadi. 1918-yilning 8-mayida Turkiston ASSR Xalq Komissarlari Sovetining “Fabrika-zavod va nazorat komissiyalari to‘g‘risida”gi qarori e‘lon qilindi<sup>34</sup>. Qarorda barcha korxonalarda tuzilgan nazorat komissiyalari davlat tashkiloti sifatida e‘tirof etilishi lozimligi belgilandi.

Umuman olganda, mulkdorlarning katta qarshiligiga qaramay o‘lkadagi deyarli barcha sanoat korxonalarida shu kabi nazorat komissiyalari tuzilib, faoliyati yo‘lga qo‘yildi. Bunda asosiy tashabbuskorlar odatda ishchilar emas, xalq xo‘jalik kengashlari va kasaba uyushmasi vakillari bo‘lar, ishni qanday tashkil etish haqida aniq ko‘rsatmalar berib borilardi.

Dissertatsiya ikkinchi bobining ikkinchi paragrafi “**Yirik ishlab chiqarish tarmoqlarining davlat tasarrufiga olinishi**” deb nomlanib, unda Turkistondagi yirik sanoat korxonalarining natsionalizatsiya qilish jarayoni va oqibatlari tahlil qilingan. Sanoat natsionalizatsiyasi bolsheviklar uchun mahalliy raqobatchi bo‘la oladigan kuch – jadidlar harakatini qo‘llovchi mulkdor qatlam vakillarini mulklarini tortib olishdan boshlandi. 1918-yil 18-fevralida Turkiston soldat, ishchi va dehqon deputatlari Ijroiya kengashi yig‘ilishida Turkistonning ko‘zga ko‘ringan savdogarlaridan, jadidlar harakatining yirik namoyandasi Saidnosir Mirjalilovning mol-mulkini ro‘yxatga olish va musodara qilish bo‘yicha qaror chiqardi. 1918-yil 22-fevral kuni Skobelev okrug sudida sovet hokimiyatining ta‘qibiga uchragan yana bir yirik mulkdor, andijonlik yirik boy va jadiclarning asosiy homiylaridan biri bo‘lgan Mirkomilboy Mirmo‘minboyev ustidan sud jarayoni o‘tkazilishi belgilanadi. Tarixchi olim R.Shamsutdinov 1918-yilning martida Andijonga kelgan XKS raisi Fyodr Kolesov buyrug‘i bilan Mirkomilboy uyida hibsga olinib, mol mulklari tortib olinib, 5 million so‘m pulini olib o‘zini yangi shaharga olib chiqib otib yuboriladi, deb ma’lumot beradi<sup>35</sup>.

Sanoat korxonalarini yalpi natsionalizatsiyasini amalga oshirish va ularni boshqarish uchun bevosita mas‘ul organ sifatida 1918-yil aprel oyi oxirida Turkiston o‘lkasi ishlab chiqarish kengashi (keyinchalik Turkiston xalq xo‘jaligi markaziy kengashi) tuzildi<sup>36</sup>. Arxiv hujjatlari va boshqa manbalarni tahlil qilish asnosida Turkistonda sanoat va xizmat ko‘rsatish tarmoqlarini natsionalizatsiya qilish jarayonini to‘rt bosqichga bo‘lib tadqiq etish maqsadga muvofiq, degan xulosaga kelindi. Xususan, 1-bosqich 1917-yilning noyabridan 1918-yilning may oylarida bo‘lib, bu davrda ko‘plab sanoat korxonalarida ishchi nazorati (amalda davlat nazorati) o‘rnatilib, bu davrni o‘tish bosqichi sifatida qayd qilishimiz lozim. Ikkinchi bosqich 1918-yilning yanvar-iyun oylarida bo‘lib, bank tizimi, paxta tozalash, yog‘ va sovun ishlab chiqarish korxonalari, tog‘-kon sanoati zavodlari davlat tasarrufiga

<sup>34</sup> O‘zMA, R - 25-fond, 1-ro‘yxat, 6-yig‘majild, 208-varaq.

<sup>35</sup> Шамсутдинов Р., Исхоков А. Андижон тарихидан лавҳалар. –Тошкент: Sharq, 2013. – Б.105.

<sup>36</sup> O‘z MA, R-25-fond, 1-ro‘yxat, 49-yig‘majild. 263-varaq.

o'tkazilgan. Uchinchi bosqichda esa, yirik va o'rta sanoat korxonalari yalpi natsionalizatsiyasi amalga oshirilib, 1918-yil iyun-sentyabr oylarini qamrab oladi. To'rtinchi bosqich 1918-yil sentyabr-oktyabr oylaridan YaIS joriy etilgunga qadar bo'lgan davrni ichiga olib, kichik korxonalar, xizmat ko'rsatish shoxobchalari, ustaxonalar va hatto novvoyxonalar natsionalizatsiyasi amalga oshirilgan.

Birinchi bo'lib, 1918-yil 27-yanvar kuni "Banklarni natsionalizatsiya qilish to'g'risida"gi dekret qabul qilindi<sup>37</sup>. Yuqoridagi hujjatda banklarni natsionalizatsiya qilish birdaniga 1918-yil 1-iyun kunida amalga oshirilishi belgilangan bo'lsa-da, bu ish ayrim sabablarga ko'ra bu muddatda yakunlanmadi.

1918-yil 28-fevral kuni Turkiston o'lkasi Xalq Komissarlar Soveti qarori bilan Turkiston o'lkasida joylashgan barcha paxta, qanday shaklda va qayerda bo'lishidan qat'i nazar, musodara qilinishi e'lon qilinadi<sup>38</sup>. 1918-yil 25-fevral kuni "Vladimir Alekseyev" savdo-sanoat shirkatiga qarashli Andijon, Yangi Marg'ilon va Chustdagi zavodlar natsionalizatsiya qilindi<sup>39</sup>. Shuningdek, 1918-yilning 23-martida "Iskander" savdo-sanoat aksiyadorlik shirkatiga qarashli paxta tozalash, yog' va sovun ishlab chiqarish zavodlarini boshqarishni shirkat boshqaruv kengashi o'z qo'lga oldi<sup>40</sup>. 1918-yil 5-martida "paxta qiroli" nomi bilan mashhur Rafael Potelyaxovga tegishli "Potelyaxov savdo-sanoat shirkati" vaqtinchalik boshqaruv kengashi shirkatni (jami 36 ta paxta tozalash, 2 ta yog' zavodini) natsionalizatsiya qilinishini e'tirof etdi<sup>41</sup>.

Demidovning yozishicha, paxtachilik sanoatini natsionalizatsiya qilish natijalariga ko'ra, 274 ta zavod davlat tasarrufiga o'tdi, shundan 239 tasi paxta tozalash zavodi, 12 tasi yog' zavodi, 2 tasi sovun zavodi, 4 tasi paxta momig'i ishlab chiqaruvchi zavod, 4 tasi yog'-sovun zavodi, 13 tasi paxta-yog'-sovun zavodi edi.

1922-yil xalq xo'jaligi tizimini taftish qilgan sovet taftishchisi, "bu vaqtda 40 dan ortiq paxta tozalash korxonasi ishlayotgan edi. Yil davomida esa, 16 tagina zavod uzluksiz ish faoliyatida bo'lgan"<sup>42</sup>, deya ahvolni to'liq tasvirlab beradi.

1918-yilning 25-martida "Gornorabochiy" kasaba uyushmalari VI syezdida neft va ko'mir sanoati korxonalari natsionalizatsiyasi bo'yicha dekret muhokama qilindi<sup>43</sup>. 1919-yilning 9-yanvarida esa, Andijon uyezdida joylashgan Markay ko'mir qazish tumani to'liq natsionalizatsiya qilindi va XXMKning Konchilik bo'limiga o'tkazildi<sup>44</sup>. Tog'-kon sanoatini natsionalizatsiya qilish ishlab chiqarish sur'atini keskin pasayishiga olib keldi. 1922-yilga kelib konlarning o'z ehtiyoji uchun sarflanganidan tashqari toshko'mir qazib chiqarish hajmi 1.4 mln. pud (22 ming tonna)ga, neft ishlab chiqarish esa, 7 mln pud (112 ming tonna)ga tushib ketgan edi<sup>45</sup>.

Xulosa qilib aytganda, sovet hokimiyatining sanoatni natsionalizatsiya qilib, xususi mulkchilikni tugatishdek keskin choralar qator salbiy oqibatlariga olib keldi.

<sup>37</sup> O'z MA, R-25-fond, 1-ro'yxat, 4-yig'majild. 317-varaq.

<sup>38</sup> O'z MA, R-25-fond, 1-ro'yxat, 49-yig'majild. 14-varaq.

<sup>39</sup> O'z MA, R-25-fond, 1-ro'yxat, 35-yig'majild. 80-varaq.

<sup>40</sup> Рабочий контроль и национализация промышленности Туркестане (1917-1920 гг.). Сборник документов. / Под ред. Воскобойникова Э.А. –Ташкент: Государственное издательство УзССР, 1955. – С. 128.

<sup>41</sup> O'z MA, R-93-fond, 1-ro'yxat, 63-yig'majild. 15-varaq.

<sup>42</sup> Park Alexander. Bolshevism in Turkestan (1917-1927). New York, Columbia University Press. –1957 y. –P. 258.

<sup>43</sup> Рабочий контроль и национализация промышленности Туркестане (1917-1920 гг.). Сборник документов. / Под ред. Воскобойникова Э.А. – Ташкент: Государственное издательство УзССР, 1955. – С.140-141.

<sup>44</sup> O'z MA, R-17-fond, 1-ro'yxat, 240-yig'majild. 8-varaq.

<sup>45</sup> O'z MA, R-25-fond, 1-ro'yxat, 808-yig'majild. 28-varaq.

Ishchilar nazorati komissiyalari tashkil etildi, ammo malakali boshqaruvchilar chetlatilgani tufayli ishlab chiqarishda uzilishlar yuz berdi. Yirik sanoatni boshqarish malakasining mavjud emasligi 1922-yilga kelib, sanoat ishlab chiqarishini keskin pasaytirib, konchilik va paxta sanoati inqirozga uchrashiga olib keldi.

Tadqiqotning uchinchi bobi **“Kichik va oʻrta ishlab chiqarish korxonalarini tugatilishi va yangi iqtisodiy siyosat (YaIS) davrida tadbirkorlar qatlaminin ahvoli”** deb nomlangan. Bobning **“Kichik korxonalar va hunarmandchilik ustaxonalarining davlat tasarrufiga olinishi”** deb nomlangan birinchi paragrafida Turkiston ASSRda kichik va oʻrta kattalikdagi sanoat korxonalarining tugatilishi jarayoni tahlil qilingan.

Sanoatni natsionalizatsiya qilishning uchinchi va toʻrtinchi bosqichida endi soni jihatdan koʻp boʻlgan oʻrta va kichik korxonalar va xizmat koʻrsatish shoxobchalarini sovet hokimiyati tasarrufiga olish amalga oshirildi. Bunga sabab sifatida esa, hayot kechirish narxining misli koʻrilmagan darajada oshib borayotgani, bu jarayonda oʻrta va kichik ishlab chiqaruvchilar, savdogarlarning faqat foyda uchun narxlarni oshirishi va chayqovchilik faoliyati natijasi sifatida talqin qilindi<sup>46</sup>.

Turkiston sanoatida kichik korxonalar salmogʻi ancha koʻp boʻlgan. Bunday korxonalar asosan, kustar koʻrinishda boʻlib, hunarmandlarning terini qayta ishlovchi kichik korxonalar, tegirmon, novvoyxona, kosibchilik ustaxonalari, hammom, yogʻoch tilish ustaxonalari va boshqa xizmat koʻrsatish ustaxonalaridan iborat edi. Ularning soni taxminan mingga yaqin boʻlib, asosan, 5-7 ta, ayrim hollarda 10-15 tagacha ishchi ishlagan, kichik xizmat koʻrsatish shoxobchalarida esa, 2-3 kishi, jumladan uning egasi ham ishlagan. Dastlab, hukumat sovet hokimiyatining natsionalizatsiya siyosatidan choʻchib ayrim korxonalar koʻnchilik mahsuloti ishlab chiqarishni deyarli toʻxtatib qoʻygani sabab terini qayta ishlash sanoatini qisman natsionalizatsiya qilishni eʼlon qildi<sup>47</sup>. XKSning 1918-yil 9-avgustdagi qaroriga asosan 12 ta terini qayta ishlash zavodlari va ulardagi barcha tayyor, yarimtayyor, xom ashyo, kimyoviy mahsulotlar, barcha aylanma mablagʻlar, jonli va jonsiz mehnat qurollarining barchasi davlat mulkiga aylantirildi. Shu yilning 12-sentyabrida Toshkentning Eski shahar qismida joylashgan yana 14 ta teri zavodi davlat tasarrufiga oʻtkazildi<sup>48</sup>.

Shu yilning 3-dekabrida Toshkent soveti ijroiya qoʻmitasi Toshkent shahridagi barcha terini qayta ishlash zavodlari natsionalizatsiya qilinganini eʼlon qildi<sup>49</sup>. Toshkentdagi barcha terini qayta ishlash zavodlari sovet hokimiyati qoʻliga oʻtdi. 1918-yilning dekabr oyi oxirida Toshkent xalq xoʻjaligi kengashi hisob-statistika boʻlimi maʼlumotiga koʻra, avgust-dekabr oylari oraligʻida 25 ta terini qayta ishlash korxonalari viloyat xalq xoʻjaligi kengashi ixtiyoriga oʻtkazilgan<sup>50</sup>.

Umuman olganda, 1920-yilda natsionalizatsiya qilingan terini qayta ishlovchi zavodlar soni 83 ta boʻlib, ularda 1577 ta ishchi ishlagan. Monopollashtirilgan

<sup>46</sup> Oʻz MA, R-17-fond, 1-roʻyxat, 32-yigʻmajild, 88-varaq.

<sup>47</sup> Oʻz MA, R-25-fond, 1-roʻyxat, 49-yigʻmajild, 348-varaq.

<sup>48</sup> Рабочий контроль и национализация промышленности Туркестане (1917-1920 гг.). Сборник документов. / Под ред. Воскобойникова Э.А. –Ташкент: Государственное издательство УзССР, 1955. – С.170.

<sup>49</sup> Oʻsha manba. –С.178.

<sup>50</sup> Oʻz MA, R-27-fond, 1-roʻyxat, 5-yigʻmajild, 21-varaq.

zavodlar soni esa, 33 ta bo‘lib, ularda 123 ta ishchi faoliyat ko‘rsatgan. Bundan tashqari, hunarmandlarning 83 ta terini qayta ishlash korxonalari natsionalizatsiya qilingan bo‘lib, 1623 kishi ushbu ish bilan shug‘ullangan. Davlat foydasiga tortib olingan korxonalar orasida 24 ta etikdo‘zlik ustaxonasi, 10 ta egar-jabduq ustaxonalari ham mavjud edi<sup>51</sup>. Ko‘plab korxonalar egalaridan tortib olinganidan so‘ng qarovsiz qoldi. Ulardan olib qo‘yilgan xomashyo esa, nazoratsiz qolib, yaroqsiz holga kelgan. Tortib olingan korxonalarda ish tashkil qilish juda qiyin kechdi.

Tadqiqotning uchinchi bob, ikkinchi paragrafi **“Yangi iqtisodiy siyosat yillarida mulkdor qatlamiga munosabatning o‘zgarishi”** deb nomlangan.

Sovet hokimiyati dastlabki to‘rt yilda amalga oshirgan harbiy kommunizm deb nom olgan iqtisodiy siyosat, eski ijtimoiy munosabatlarni yo‘q qilishga, jamiyatda sinfiy kurashni yaratishga qaratilgan yangi ijtimoiy kurs aholining umumiy holatini yomonlashtirdi xolos. Butun Rossiyada bo‘lganidek, Turkistonda ham aholining turmush darajasi pasaydi. Buni iqtisodiy ko‘rsatkichlarning keskin tushib ketishi ham tasdiqlaydi. Masalan, Turkiston o‘lkasi ishlab chiqarishning umumiy hajmi 1920-yilda 1914-yilga nisbatan 80 foizga kamaydi<sup>52</sup>. 1922-yilning 16-fevralida Turkiston MIQning plenum yig‘ilishida so‘zga chiqqan Sulton Xo‘jayev quyidagi fikrlarni bildiradi: “Davlatda 25 ta katta ishlab chiqarish bor. Toshkent shahrini olaylik, bizda 10 ta zavod bor bo‘lgan, hozirgi vaqtda esa, ulardan faqat 2 tasi ishlayapti, 8 tasi esa ishlamayapti va 3000 ta ishchi amalda ko‘chaga uloqtirildi, ular mutlaq ishsiz, bozorda non bo‘lishiga qaramay ular och qolmoqdalar, ularning qo‘lida umuman pul yo‘q<sup>53</sup>. Bunday sharoitda harbiy kommunizm siyosatini davom ettirish sovet hokimiyatining mavjudligini xavf ostiga qo‘ya boshladi.

Rossiya kommunistik partiyasining 1921-yil 8-16-mart kunlari o‘tkazilgan X syezdida oziq-ovqat razverstkasi natura ko‘rinishidagi soliq bilan alishtirildi. Umuman olganda, Lenin dastlab ushbu siyosatni vaqtinchalik taktik chekinish ekanini aytgan bo‘lsa-da, 1921-yil 17-oktyabrda Siyosiy ma‘rifatchilarning II Butunrossiya syezdida “Yangi iqtisodiy siyosat va siyosiy tarbiya vazifalari” mavzusidagi chiqishida kapitalizmni ma‘lum darajada tiklash majburiy bo‘lganini, ammo bu chekinish haddan tashqari tartibsizlikda sodir bo‘lganini, uning qachongacha davom etishi noma‘lumligini tan oladi<sup>54</sup>.

Rossiyada boshlangan yangi iqtisodiy siyosat tadbirlari Turkistonga ham tezda ta‘sir ko‘rsata boshladi. YaISni mahalliy sharoitda qo‘llash masalalari Turkiston Kompartiyasi VI syezdi va TASSR Sovetlari X syezdida hal etilgan. Ammo bundan oldin, RKP (b)ning X syezdi va Sovet davlatining YaIS o‘tkazish to‘g‘risidagi birinchi dekretlari e‘lon qilinishi bilanoq, o‘lkada ishlar boshlangan edi. 1921-yil 22-aprelda Turkiston MIQ oziq-ovqat, yem va xomashyo razvyorstkasini natura solig‘i bilan almashtirish to‘g‘risida dekret qabul qildi<sup>55</sup>, 1921-yil iyun oyining o‘rtalaridan

<sup>51</sup> O‘z MA, R-25-fond, 1-ro‘uxat, 522-yig‘majild, 49-varaq.

<sup>52</sup> Озерова Н.Г. Экономическая политика в Узбекистане: взаимоотношение власти и частной собственности (1917-1939 гг.). // XXI век: актуальные проблемы исторической науки: Материалы международной научной конференции, посвящённой 70-летию исторического факультета. – БГУ. Минск, 15-16 апр. 2004. – С.268.

<sup>53</sup> O‘z MA, R-17-fond, 1-ro‘uxat, 86-yig‘majild, 48-varaq.

<sup>54</sup> Ленин В.И. Полное собрание сочинений. Том 44. – Москва: Госиздат полит. лит, 1963. –С.158.

<sup>55</sup> Ўзбекистоннинг янги тарихи. Т. 2. Ўзбекистон совет мустамлакачилиги даврида // Тузувчилар: Н.Жўраев, Р.Нуруллин, С.Камолов ва бошқ. –Тошкент: Sharq, 2000. –179 б.

esa razvyorstkani o'tkazish to'xtatildi. TASSRning partiya va sovet organlari joylarda yangi iqtisodiy siyosatni tushuntirish va amalga oshirish bo'yicha bajargan ishlariga qaramay, joylarda uni hayotga tatbiq etish borasida oqsoqliklar kuzatildi. Pul islohoti, banklarning tashkil etilishi, xususiy kapitalning xo'jalik-tadbirkorlik faoliyatida sherik sifatida ishtirok etishi iqtisodiyotni sog'lomlashtirishga ijobiy ta'sir ko'rsatdi.

1921-1922-yillar kuzida TASSRda korxonalar asosan 2-3 yilga, asbob-uskunalarni ta'mirlash, ishga tushirish, shuningdek, ijara haqi hisobiga mahsulotning bir qismini mahalliy xo'jalik organlariga natura holda yetkazib berish sharti bilan ijaraga berildi. 1922-yil oxiridan boshlab xususiy kapitalga asoslangan "Intifoq", "Turkiston", "Tijorat", "Eksport-import", "Uchbosh", "Vositachi", "Ekspeditor", "Ideal", "Karavan" va boshqa shirkatlar ro'yxatdan o'tkazildi<sup>56</sup>.

YaIS davrida iqtisodiy erkinliklarning berilishi jamiyatda ma'lum bir darajada ijtimoiy-siyosiy ziddiyatlarni keltirib chiqardi. Bir tomondan, YAISning natijasi sifatida iqtisodiy faollik va savdo rivojlangan bo'lsa, ikkinchi tomondan, Sovet mafkurasi bilan to'qnash kelgan ijtimoiy keskinliklar ham kuchaydi. Bolshevik partiyasining radikal qanoti nepmenlar va mulkdorlar sinfini yangi kapitalist qatlam sifatida qoralab, ularni jamiyat uchun xavfli hisoblagan.

## XULOSA

1918-1924-yillarda Turkiston ASSRda sovet hokimiyatining mulkdorlar va tadbirkorlar qatlamiga nisbatan yuritgan siyosati bilan bog'liq jarayonlarni arxiv materiallari, tarixiy manbalar va davriy matbuot nashrlari asosida tadqiq etish, mazkur ish davomida amalga oshirilgan tarixiy tahlil natijalarini umumlashtirish asnosida quyidagi **xulosalarga** kelindi:

1. Sovet hokimiyatining dastlabki yillaridanoq Turkistondagi sovet hokimiyati markscha-lenincha yondashuv asosida xususiy mulkchilik va tadbirkorlikka qarshi keskin kurash boshladi. Kambag'al mehnatkash xalq ommasi manfaatini himoya qilish shiorini niqob qilib olgan bolsheviklar amalda Turkistonda asrlar davomida shakllangan mulkchilik shakllarini, yer egaligi munosabatlarini barbod qildi. Yirik mulkdorlar, tadbirkorlar qatlamini partiya-sovet idoralari tomonidan "yot unsur", "ekspluatator sinf" deb e'lon qilindi va ularga qarshi keskin kurash boshlandi. Mulkdorlar qo'lidagi ishlab chiqarish korxonalari, yer-suv, qishloq xo'jalik jihozlari, oziq-ovqat zaxiralari majburan tortib olingani, uning egalari huquqsiz qatlamga aylantirilgani isbotlandi.

2. Sovet hukumati Turkistonda dastlabki yillardagi zamindor mulkdorlarga nisbatan yuritgan siyosati, agrar masaladagi olib borilgan ishlar birinchidan, o'lkadagi endigina shakllanayotgan kapitalistik munosabatlarga, bozor uchun mahsulot yetkazib berishni boshlagan qishloq xo'jaligi sohalariga katta zarar yetkazdi. Xususan, qishloq xo'jalik mahsulotlarini yetishtirish, paxta yetishtirish 50-70%ga, bog'dorchilik sohasida mahsulotlar yetishtirishni 60% ga qisqarib ketishiga sabab bo'ldi. Bu o'lka aholisini, ayniqsa, dehqonlarning yashash

---

<sup>56</sup>Каримов Р.Х. НЭП в Узбекистане: закономерности и специфика // Узбекистонда ижтимоий фанлар. – Тошкент, 1988. – №3. – С.22.

sharoitlarini og'irlashtirib, ocharchilikni keltirib chiqargan omillardan biri bo'lgani tasdiqlandi.

3. Sovet hukumatining sotsialistik mafkurani targ'ib qilib, mulklarni qayta taqsimlash haqidagi targ'iboti qishloq aholisi o'rtasida deyarli qabul qilinmadi. Yerga bo'lgan xususiy mulk huquqini yo'qotishni kun tartibiga qo'ydi va mulkdorlarning yerlarini natsionalizatsiya qilishni boshladi. Natsionalizatsiya qilishda yer qo'mitalari xodimlarining yetishmasligi, malakasizligi uning oqibatlarini yanada og'irlashtirdi. Yirik va o'rta zamindorlardan tortib olingan katta samara beruvchi yerlarni mayda bo'laklarga bo'lib tarqatilishi, yetarli vositalarga ega bo'lmagan yangi egalarining o'z vaqtida yerlarda agrotexnik tadbirlarni amalga oshira olmasligiga, aksar hollarda dehqonchilik xo'jaligini to'g'ri yurita olmaslik holatlariga olib keldi. Tortib olingan mulklarga xo'jasizlarcha munosabatda bo'lindi, ekin yerlari va bog'lar qarovsiz qoldi yoki yetarli darajada parvarish qilinmadi va bu ekin maydonlarining keskin qisqarib ketishiga olib keldi. Masalan, kuzgi bug'doy ekilgan yer maydoni 1919-yilga kelib 1915-yildagidan 59,7 foizga qisqargan bo'lsa, bahorgi bug'doy yer maydonlari 71 foizga qisqarib ketgan. 1917-yilda paxta ekilgan yer maydonlari 425 ming desyatinadan ortiq bo'lsa, 1922-yilga kelganda 63 ming desyatinaga, qariyb 7 barobarga qisqarib ketgan. Iqtisodiy taraqqiyot va farovonlikka erishish asosida manfaatdorlik yotishini inobatga olsak, bu o'lka aholisi hayotini faqatgina yomonlashtirgani aniqlandi.

4. O'tkazilgan noto'g'ri iqtisodiy tadbirlar jamiyatdagi ijtimoiy muhitning butkul buzilishiga olib keldi. Jamiyat a'zolarini o'zaro bir-biriga qarshi qo'yish, qatlamlar o'rtasida dushmanlik kayfiyatini singdirish uchun katta targ'ibot kampaniyasi ish yuritdi. Qishloqlarda yangi hayotga, yangi turmushga targ'ibot bahonasida mulkdor qatlam va kambag'allar o'rtasida nafrat uyg'otish, mulkdorlarning ushbu jamiyatda yashashlari mumkin emasligini uqtirish orqali sun'iy sinfiy kurash o'ylab topildi va bu ijtimoiy beqarorlikni keltirib chiqargani tasdiqlandi.

5. Sanoat korxonalari natsionalizatsiyasi ham juda keskin yo'llar bilan amalga oshirildi. Ishchilar nazorati o'rnatilishining asosiy salbiy natijasi tajribali boshqaruv kadrlarning jarayondan olib qo'yilishi va korxonalarni samarali boshqarishga qodir bo'lmagan shoshilinch ravishda tuzilgan ishchilar nazorati komissiyalarining paydo bo'lishi edi. O'z-o'zidan bu mehnat intizomi va unumdorligining pasayib ketishi, uskunalar tezda yaroqsiz holga kelib qolishi, ishdan bo'shatish va noto'g'ri ishlashning kuchayishiga olib keldi. Respublika hududidagi barcha korxonalarni davlat tasarrufiga olishda ham radikal choralar ko'rildi. Dastlab, eng yirik tarmoqlar: bank-moliya, paxtachilik va tog'-kon sanoati natsionalizatsiya qilindi. Bank-moliya tizimining davlat tasarrufiga olinishi o'lkada moliyaviy ahvolni yomonlashishiga, qishloq xo'jaligida bahorgi ekinlarni kreditlash tizimini izdan chiqishiga va pirovardida ekin maydonlari va hosil kamayishi omillaridan biriga aylandi. Bundan tashqari, savdo-sanoat sohasi vakillarining barcha aktivlari davlat nazoratiga o'tishi va ularga o'z hisoblaridan erkin foydalana olmaslik kabi juda noxush oqibatlarni keltirib chiqardi.

6. Turkistonda eng keng tarmoq yoygan sanoat sohasi bo'lmish paxtani chigitidan tozalash, chigitdan yog' va sovun olish sanoatining musodara qilinishi asosiy sanoat tarmog'ini tezda tanazzulga olib keldi. O'lkada anchagina tez rivojlanayotgan paxtani qayta ishlash sanoati deyarli to'xtab qoldi. 1921-yilda to'ntarish arafasida ishlab turgan 250 ta korxonadan 40 ta atrofidagi korxonalar faoliyat ko'rsatgan, atigi 16 ta korxonalar o'z imkoniyatlari darajasida ishlagan. Bunga eng asosiy sabablardan biri, sanoatni samarali boshqarishga qodir bo'lmagan shoshilinch ravishda tuzilgan zavod qo'mitalarining uquqsiz boshqaruvi edi. Oddiy ishchi sifatida o'z vazifasini yaxshi bajargan ishchilar korxonalar va shirkatlarni boshqarishda muammolarga duch keldilar. Menejerlik ishida suyagi qotgan korxonalar egalaridan farqli o'laroq, iqtisodiy tushkunlik davrida sanoatni bir guruh tajribasiz ishchilarning qo'liga o'tishi, zo'rg'a ishlayotgan korxonalarning faoliyatini to'xtatishiga sabab bo'ldi. O'z foydasi uchun korxonani rivojlantirishdan manfaatdor korxonalar egasi o'rniga kelgan zavod qo'mitalari, iqtisodiy sohani rivojlantirish uchun tashkil etilgan xalq xo'jaligi kengashi sanoatni nafaqat rivojlantirish, balki, o'z holda ushlab turishga ham qodir emasdi. Buning ustiga ushbu idoralarda buzilish, korrupsion holatlar avjiga chiqdi. Birgina 1918-1920-yillarda xalq xo'jaligi kengashi xodimlari tomonidan 11 mln rubl miqdoridagi mablag'larni o'zlashtirish aniqlandi. Yuqoridagilarga qo'shimcha sifatida, mehnat intizomi va unumdorligining pasayishi ham sodir bo'ldi, unumdorlikni oshirish bahonasida zo'riqib ishlash uskunalarning tezda yaroqsiz holga kelishiga olib kelgani aniqlandi.

7. Yirik sanoatni natsionalizatsiya qilish siyosatidan eng ko'p zarar ko'rgan tarmoqlardan biri, shubhasiz tog'-kon sanoati bo'ldi. Bunga ushbu sanoatning o'ziga xosliklari ham sabab bo'ldi. Xususan, aytaylik, bir neft konini topib, undan daromad olish uchun yillab razvedka ishlari bilan shug'ullanib, katta xarajat qilish lozim. Ko'mir konlarini ishlata bilmaslik, mablag' yetishmovchiligi, to'g'ri boshqaruvning yo'lga qo'yilmasligi oqibatida ishlab chiqarish hajmining pasayishi kuzatildi. 1922-yilga kelib konlarning o'z ehtiyoji uchun sarflanganidan tashqari toshko'mir qazib chiqarish hajmi 22 ming tonnaga, neft ishlab chiqarish esa, 112 ming tonnaga, ya'ni to'ntarish arafasidagi hajmdan ikki barobardan kamroqqa tushib ketgan edi. Shoshma-shosharlik bilan toshko'mir va neft konlarini mulk egalaridan tortib olinishi bunday katta xarajat qilishga qodir bo'lmagan sovet hukumatini boshi berk ko'chaga olib kirib qo'ydi. Natijada, o'lkaning cho'lliklarida qum bo'roni va boshqa ekologik xavflarni oldini olishga xizmat qiladigan minglab gektar saksovulzorlarni yo'q qilinishiga, yog'och o'tin tayyorlash bahonasida esa o'zi shundoq ham kam bo'lgan o'rmonlarni kesilishiga olib keldi. Bu o'ylanmay qilingan choralar esa, o'lkani ekologik jihatdan xavf ostida qolishiga olib keldi.

8. O'z navbatida sovet hokimiyatining bu siyosatidan qattiq norozi bo'lgan mulkdor qatlam vakillari qurolli qarshilik harakatining asosiy ta'minotchisiga aylandi. O'lkada boshlangan istiqloqlolchilik harakatini vujudga kelishida sovet hokimiyatining mulkdor va tadbirkorlar qatlamiga nisbatan yuritgan radikal siyosati natijasi ekanligi tasdiqlandi.

9. Iqtisodiy tanazzul sabablarini tushuntirishda ayrim hollarda Rossiya bilan aloqaning uzilishini asosiy omil sifatida ko'rsatiladi. Biroq, bizningcha, bu iqtisodiy siyosatning natijasi edi. Chunki, 1919-yilda Rossiya bilan aloqa yo'lining qayta ochilishi iqtisodiy tushkunlikni bartaraf eta olmadi. Tushkunlik yanada oshib bordi va 1920-1922-yillarda o'zining eng yuqori cho'qqisiga chiqib, o'lkada ocharchilikdan minglab odamlar qurbon bo'ldi. Bularning bari, sovet hukumatida o'lkaning o'ziga iqtisodiy tuzilishi va undagi muammolar haqida aniq tushuncha yo'qligi, shu bois shoshilinch ravishda amalga oshirilgan natsionalizatsiya siyosati o'zining salbiy natijalarini ko'rsatdi.

10. Sovet hokimiyatining keyinchalik, "harbiy kommunizm" siyosatidan voz kechib, YaISni joriy etishi Turkiston mintaqasidagi mulkdorlar va tadbirkorlar sinfiga qisqa muddatli iqtisodiy erkinliklarni taqdim etgan bo'lsa-da, ularning ijtimoiy mavqeyini butkul tiklay olmadi.

Turkiston ASSRda sovet hokimiyatining mulkdorlar va tadbirkorlar qatlamiga nisbatan yuritgan siyosatini tadqiq etish asosida quyidagi **taklif va tavsiyalar** ishlab chiqildi:

1. Turkiston ASSRda sovet hokimiyatining mulkdorlar va tadbirkorlar qatlamiga nisbatan yuritgan siyosati tarixiga doir monografik tadqiqotlar tayyorlash va nashr etish;

2. O'zbekiston tarixi bo'yicha yaratilayotgan fundamental asarlarda sovet hokimiyati davrida Turkistonda mulkdorlar va tadbirkorlar qatlamiga nisbatan yuritgan siyosati bilan bog'liq masalalar yoritib o'tilishi lozim;

3. "Turkiston ASSRda sovet hokimiyatining mulkdorlar va tadbirkorlar qatlamiga nisbatan yuritgan siyosati (1918-1924-yillar) (arxiv hujjatlari va davriy matbuot materiallarini tizimlashtirish va tadqiq etish)" mavzusida amaliy loyihasi ishlab chiqish va amalga oshirish;

4. Turkiston ASSRda sovet hokimiyatining iqtisodiy siyosati tarixiga bag'ishlangan ilmiy-amaliy anjumanlar tashkil etish hamda ularda mulkdor va tadbirkorlar qatlamiga nisbatan yuritilgan siyosat va uning oqibatlari bilan bog'liq masalalarni muhokama qilish, anjuman natijalarini internet orqali ommalashtirish lozim.

**НАУЧНЫЙ СОВЕТ DSc 03/31.12.2020. Tar.60.01  
ПО ПРИСУЖДЕНИЮ УЧЕНЫХ СТЕПЕНЕЙ ПРИ  
АНДИЖАЙСКОМ ГОСУДАРСТВЕННОМ УНИВЕРСИТЕТЕ  
ИМЕНИ ЗАХИРИДИНА МУХАММАДА БАБУРА**

---

**АНДИЖАЙСКИЙ ГОСУДАРСТВЕННЫЙ УНИВЕРСИТЕТ**

**ХОШИМЖОНОВ ШАРОФИДДИН КОЗИМЖОН УГЛИ**

**ПОЛИТИКА СОВЕТСКОЙ ВЛАСТИ В ОТНОШЕНИИ СЛОЯ  
СОБСТВЕННИКОВ И ПРЕДПРИНИМАТЕЛЕЙ В ТУРКЕСТАНСКОЙ  
АССР (1918–1924 гг.)**

**07.00.01 – История Узбекистана**

**АВТОРЕФЕРАТ ДИССЕРТАЦИИ  
ДОКТОРА ФИЛОСОФИИ (PhD) ПО ИСТОРИЧЕСКИМ НАУКАМ**

Тема диссертации доктора философии (PhD) зарегистрирована в Высшей аттестационной комиссии при Министерстве высшего образования, науки и инноваций Республики Узбекистан за № В2025.1.PhD/Tar403.

Диссертация выполнена в Андижанском государственном университете имени З. М. Бабура. Автореферат диссертации на трёх языках (узбекском, русском, английском (резюме)) размещён на веб-сайте Научного совета (<http://kengash.edu.uz/tarix/>) и в Информационно-образовательном портале «ZiyoNet» ([www.ziyo.net/uz](http://www.ziyo.net/uz))

**Научный руководитель:**

**Абдуллаев Музробжон Гуламович**  
доктор исторических наук, профессор

**Официальные оппоненты:**

**Расулов Бахтиёр Махмуджонович**  
доктор исторических наук, профессор

**Ерметов Авазбек Абдуллаевич**  
доктор исторических наук, профессор

**Ведущая организация:**

**Наманганский государственный университет**

Защита диссертации состоится « 20 » 12 2025 г. в 14.00 часов на заседании Научного совета № DSc.03/31.12.2020.Tar.60.01. при Андижанском государственном университете имени З.М.Бабура (адрес: 170100, Республика Узбекистан, город Андижан, улица Университетская, дом №129. Здание факультета истории Андижанского государственного университета имени З.М. Бабура, 1-этаж, 108-аудитория. Тел.: (0374) 225-73-21; факс: (0374) 225-73-21 e-mail: [agsu\\_info@edu.uz](mailto:agsu_info@edu.uz). Андижанский государственный университет имени З. М. Бабура).

С диссертацией можно ознакомиться в Информационно-ресурсном центре Андижанского государственного университета имени З.М.Бабура (зарегистрирована за № 2182/А). (Адрес: 170100, Республика Узбекистан, город Андижан, улица Университетская, дом №129, главный корпус). Тел.: (0374) 223-84-33; факс: (0374) 223-84-30.

Автореферат диссертации разослан « 05 » 12 2025 года.  
(протокол реестра рассылки № 43 от 04.12 2025 года).



*[Handwritten signature]*

**Р.Т.Шамсутдинов**

Председатель Научного совета по присуждению учёных степеней, д.и.н., профессор

*[Handwritten signature]*

**М.О.Алихожиев**

Учёный секретарь Научного совета по присуждению учёных степеней, к.и.н., доцент

*[Handwritten signature]*

**О.К.Комилов**

Председатель научного семинара при Научном совете по присуждению учёных степеней, д.и.н., профессор

## **Введение (Аннотация диссертации на соискание учёной степени философии (PhD))**

**Актуальность и необходимость темы диссертации.** В условиях глобальных трансформаций, происходящих в современном мире, мировая экономика претерпевает глубокие и стремительные изменения. Ухудшение политической обстановки на международной арене, рост напряжённости, а также тенденции к усилению автократических режимов в ряде государств оказывают негативное влияние на экономику и предпринимательскую деятельность. Идеологизированный подход правительств отдельных стран к регулированию экономики, их политическое воздействие на хозяйственные процессы приводят к снижению доверия со стороны частного сектора и предпринимателей, что, в свою очередь, обуславливает возникновение целого ряда негативных последствий. С этой точки зрения анализ предпринимательской деятельности недавнего прошлого, а также исследование истории взаимосвязей и взаимодействия между государством и собственниками приобретает важное научно-практическое значение.

В мировой науке ведутся исследования, посвящённые формированию и этапам развития слоя собственников и предпринимательских отношений, а также их связи с социально-экономическими процессами. В частности, значительное внимание уделяется изучению влияния основ государственного управления и идеологии в первые годы установления советской власти на развитие общества, анализу отношения правящей системы к частной собственности и собственникам, проводимой в отношении них политике и её последствиям. Однако в условиях советского управления в Туркестане целый ряд вопросов остаётся недостаточно изученным. К их числу относятся особенности функционирования местных предпринимательских отношений, правовое положение слоя собственников, а также ключевые аспекты ликвидации частной собственности в крае.

В годы независимости в Республике Узбекистан последовательно осуществляются реформы, направленные на развитие предпринимательства, обеспечение неприкосновенности частной собственности и укрепление её правовых основ. В последние годы сформирована правовая база, обеспечивающая реформирование экономики, приватизацию государственных отраслей хозяйства, становление свободного рынка и поддержку предпринимательской деятельности.

Высказывания Президента Республики Узбекистан Шавката Мирзиёева о том, что « развитие предпринимательства является для нас стратегической задачей. Предприниматели – наша наиболее надёжная опора и самая большая сила»<sup>1</sup>, подтверждают, что предпринимательство определяется в государственной экономической политике как приоритетное направление, а частный сектор рассматривается в качестве ключевого драйвера национального

---

<sup>1</sup> Mirziyoyev Sh. Tadbirkorning yutug'i – butun xalqimizning yutug'i. Prezident Shavkat Mirziyoyevning 2024-yil 20-dekabr kuni mamlakatimizdagi faol tadbirkorlar bilan uchrashuvidagi nutqi. <https://gov.uz/oz/news/view/31058>

развития. В нынешних условиях многие проблемы, возникающие при широком внедрении рыночных отношений в нашу экономику, коренятся в тех порядках, которые начали формироваться в исследуемый период и были глубоко укоренены в общественном сознании. В этом контексте анализ политики советской власти в отношении предпринимателей и слоёв собственников позволяет не только объективно оценить истоки исторической реальности и её до сих пор не раскрытые аспекты, но и способствует устранению пробелов в процессе проводимых экономических реформ и перехода к свободной рыночной экономике.

Настоящее исследование в определённой степени способствует выполнению задач, обозначенных в нормативно-правовых актах, в частности: в Указе Президента Республики Узбекистан от 5 октября 2016 года №УП-4848 «О дополнительных мерах по обеспечению ускоренного развития предпринимательской деятельности, всесторонней защите частной собственности и качественному улучшению делового климата», в Указе от 28 января 2022 года №УП-60 «О Стратегии развития нового Узбекистана на 2022–2026 годы», а также в Указе от 11 сентября 2023 года №УП -158 «О Стратегии «Узбекистан – 2030»», и других нормативно-правовых документах, регулирующих данную сферу.

**Соответствие исследования приоритетным направлениям развития науки и технологий Республики Узбекистан.** Диссертационная работа выполнена в рамках приоритетного направления I – «Формирование системы социальных, правовых и экономических инновационных идей информационного общества и демократического государства и пути их реализации» программы развития науки и технологий Республики Узбекистан.

**Степень изученности проблемы.** В узбекской историографии до настоящего времени не осуществлены специальные исследования, посвящённые ликвидации частной собственности в годы советской власти, политическим и экономическим ограничениям, наложенным на слой собственников и предпринимателей, их преследованию и устранению, передаче промышленных предприятий и производственных отраслей в государственную собственность, а также анализу политики советской власти в отношении предпринимательства в период Новой экономической политики. Имеющиеся разработки по данной проблематике в основном выполнены в рамках бывшего Союза и отражают общесоюзный идеологический подход.

Исследования, посвящённые данной проблематике, с точки зрения периодизации и концептуального подхода условно можно разделить на три группы:

1. публикации советского периода;
2. исследования, выполненные в годы независимости;
3. зарубежные исследования.

Литературу, созданную в советский период, также возможно условно разделить на три группы. В частности, к первой группе относятся работы, посвящённые проблемам государственного управления и экономической политики в первые годы установления советской власти, а также в период

Новой экономической политики (НЭП). Данными вопросами занимались партийные руководители, главы центральных органов, экономисты – В.П. Акуленко, В.А.Базаров, Н.И.Бухарин, Г.Сафаров, Н.Д.Кондратьев, Г.М. Кржижановский, Л.Н. Крицман, Ю.Ларин, В.В. Новожилов, Е.А. Преображенский, А.И. Рыков, С.Г.Струмилин, И.Н.Юровский, а также специалисты различных отраслей того времени – А.П. Демидов, В. Лаврентьев, Е.Л. Зелкина и другие<sup>2</sup>. В сфере научных интересов этих исследователей лежит широкий круг вопросов, прежде всего такие, как тенденции экономического развития и пределы участия государства во внутренней экономике, взаимоотношения государства с другими субъектами многоукладной хозяйственной системы, а также различия между государственным и частным управлением. Особое внимание уделяется таким вопросам, как координация экономической политики, роль государства в формировании деятельности государственного сектора и экономических колебаний, возможности стимулирования экономического роста и структурных преобразований, взаимосвязь между рыночными и директивно-плановыми методами управления, а также пределы государственного воздействия на рыночный механизм регулирования экономики и направления его реформирования. Все эти аспекты наглядно отражают специфику экономических отношений рассматриваемого периода.

Ко второй группе относятся источники – официальная советская историография, объяснявшая экономические и предпринимательские отношения периода военного коммунизма и Новой экономической политики с позиций коммунистической идеологии. Формирование данного направления фактически началось с издания в 1938 году «Краткого курса истории ВКП(б)», утвержденного Центральным Комитетом Всесоюзной Коммунистической партии (большевиков).

Концепция политического и социально-экономического развития страны, сформированная в партийном учебнике, оставалась доминирующей в советской историографии вплоть до середины 1980-х годов. Период Новой экономической политики рассматривался как этап перехода от капитализма к социализму, как историческое звено между «военным коммунизмом» и

---

